O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TARIX INSTITUTI

XURSHID SIROJIDDINOVICH JUMANAZAROV

TURKISTONDA MILLIY TIB AN’ANALARI VA TIBBIYOT TARIXI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi,
07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent, 2024

UO‘K: 61(09):615.89(575)

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of abstract of the doctor of dissertation

Оглавление автореферата докторской диссертации

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TARIX INSTITUTI

XURSHID SIROJIDDINOVICH JUMANAZAROV

TURKISTONDA MILLIY TIB AN’ANALARI VA TIBBIYOT TARIXI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi,
07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent, 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Tar172 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (fati.uz) va «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz) axborot-ta’lim tarmog‘iga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Adhamjon Azimboyevich Ashirov** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Alisher Xudoyberdiyevich Doniyorov** tarix fanlari doktori, professor
	Gavhar Esanovna Mo‘minova tarix fanlari doktori, professor
	Dilshod Jamoliddinovich Urakov tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.02/30.12.2019 Tar.56.01 raqamli Ilmiy Kengashning **2024 yil 7-avgust** kuni soat **14-00**dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi 5-uy, Tarix instituti binosi, 8-qavat Majlislar xonasi. Tel.: (+99871) 233-54-70; faks: (+99871) 233-39-91; e-mail: info@fati.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy). Tel: (+99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 18-iyul kuni tarqatildi.
(2024 yil 17-iyuldagi 5-raqamli reestr bayonnomasi)

Azamat Ziyo
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, tarix fanlari doktori, akademik

D.M. Jamolova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

F.S. Boboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari tomonidan olib borilayotgan tibbiy siyosatning insoniyat genofondiga ta’siri hamda rivojlangan davlatlarning tibbiy sohaga siyosiy-iqtisodiy qurol sifatida qarashi insoniyat uchun global bo‘lgan muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tarixan Turkiston o‘lkasiga bevosita daxldor bo‘lgan mamlakatlarda bu kabi muammolarning kelib chiqishida umumiy bo‘lgan jihatlar kuzatilib, bular asosan, mintaqaning 19 – 20 yuzyilliklarda mustamlakachi davlatga qaramlik davrini boshidan kechirganligi va mazkur davrda milliy tibbiyot tizimining tanazzuli hamda hukmron davlat tomonidan olib borilgan tibbiy siyosatning oqibatlari bilan uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Ayni shu jihatdan mazkur masalalarning tarixiy ahamiyati bugungi kunda ham dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy dunyoda xorijdagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan yaqin o‘tmishda turli xalqlarning milliy tib tizimiga xos bo‘lgan an’analari, aholining salomatlik madaniyatiga doir qarashlari hamda zamonaviy tibbiyotning joriy etilishi bilan bog‘liq jarayonlar keng o‘rganilmoqda. Xususan, Turkiston o‘lkasida milliy tib va uning an’anaviy ko‘rinishlari, tabiblik kasbi hamda bu kasbga xos bo‘lgan urf-odatlar, turkistonliklarning salomatlikka doir etnohududiy xususiyatlari kabi sohalar asosiy yo‘nalishlar sifatida ilmiy izlanishlarga asos bo‘lmoqda. Bundan tashqari, mintaqada mustamlaka tizimi o‘rnatilgandan so‘ng ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar, jumladan, aholi salomatligini saqlash, tibbiyot joriy etilishi bilan bog‘liq vaziyat va mustamlaka hukumatining olib borgan tibbiy siyosati oqibatlari tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, milliy tib an’analarining yutuq va kamchiliklari, mustamlaka tibbiyotini joriy etishdan ko‘zlagan maqsadlari, hukumatning milliy tibga bo‘lgan munosabati va aholining salomatlik bilan bog‘liq empirik bilimlari kabi masalalarni xolis o‘rganish o‘zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining qadimiy o‘tmishini o‘rganish, ayniqsa mustamlaka sirtmog‘ida qolgan davr tarixiga har tomonlama, haqqoniy baho berishga bo‘lgan intilish kuchaydi. Turkiston o‘lkasining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatini turfa xil manbalar asosida tadqiq qilish asnosida mustamlaka davrida aholi sog‘lig‘ini saqlash siyosati, salomatlikka doir qarashlarning o‘zgarib borishi va bunda milliy tib vakillari hamda ziyolilarning o‘rni kabi jihatlarni xolisona, milliy manfaatlar nuqtai-nazaridan o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda. Zero, “milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Turkistondagi tibbiy an’analarning ahamiyati, sog‘liqni saqlash masalalari, o‘lkaga mustamlaka tibbiyotining kirib kelishi va uni targ‘ib qiluvchi kuchlar faoliyati, milliy kadrlarni yaratish muammolari, tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yishdagi biryoqlama siyosat kabi boshqa jarayonlarni o‘rganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvarda “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” nomli nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/4089.

to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 15-yanvardagi PQ-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Turkistonda milliy tib tizimi va tibbiy an’analarning mintaqaviy jihatlari, o‘lkaga mustamlaka tibbiyotining kirib kelishi va joriylanishi bilan bog‘liq jarayonlarga bag‘ishlangan izlanishlar dunyoning turli yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida olib borilmoqda. Xususan, Kolumbiya universiteti (Nyu-York, AQSh), Milliy sog‘liqni saqlash instituti (Vashington, AQSh), Yevropa, Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti (Karlton, Ottava Kanada), Lyudvig Maksimilians universiteti (Myunxen, Germaniya), Maks Planka (Bavariya, Germaniya), Sharq tillari va sivilizatsiyalari instituti (Parij, Fransiya), Avstriya Fanlar akademiyasining Markaziy Yevroosiyoda islomni o‘rganish qo‘mitasi (Vena, Avstriya), Mahalliy maxsus xizmatlar tarixini o‘rganish jamiyati, Oltay davlat pedagogika universiteti (Oltay, Rossiya), Ch. Valixonov nomidagi Tarix va etnologiya instituti (Olmaota, Qozog‘iston), “Qirg‘iziston-Rossiya slavyan univesiteti” davlat oliy kasb-hunar ta’limi muassasasi (Bishkek, Qirg‘iziston) shular jumlasidandir.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Turkiston o‘lkasida tibbiyot tarixi va an’analari masalasiga doir quyidagi ilmiy natijalar olingan: Turkistonda tibbiyotning joriy etilishi tarixi hamda Rossiya imperiyasining tibbiy siyosatini amalga oshirishida shifokorlardan hukumatning mintaqadagi maxsus vakillari sifatida foydalanganligi asoslangan Kolumbiya universiteti (Nyu-York, AQSh); Turkistonda kuzatiladigan o‘lkaga xos yuqumli kasalliklar va epidemiyalarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning hukumat tomonidan izchil tashkil qilinmasligi tibbiy turg‘unlikdan tashqari iqtisodiy tanazzulga sabab bo‘lganligi dalillangan Milliy sog‘liqni saqlash instituti (Vashington, AQSh); 1892-yilda Toshkentda tarqalgan yuqumli kasallik mohiyatan mustamlaka imperiyasining etnik siyosatini ochib bergani, ruslar turkistonlik aholidan qanchalik alohidalashuvni xohlasada, tibbiy to‘fonlar ularni ma’lum maqsad yo‘lida birlashishga majbur qilishi asoslangan Yevropa, Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti (Karlton, Ottava Kanada); Rossiya imperiyasida shifokorlarni chekka hududlarga ishga yuborishdan ko‘zlangan ustuvor maqsad milliy aholi toifasining sog‘lig‘ini saqlash emas, balki harbiylar va ko‘chib

[2] Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi sites.columbia.edu; https://www.ncbi.nlm.nih.gov; https: carleton.ca; https://www.mp.de; http://www.inalco.fr; https://www.oeaw.ac.at/sice; https://gose.geschichte.uni-muenchen.de; https:// old.altspu.ru; https://iie.kz; https://www.krsu.edu.kg va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

kelgan yevropalik aholi qatlamiga xavf tug‘diruvchi manbalarni nazorat qilish hamda imperiyaning mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash ekanligi asoslangan Lyudvig Maksimilians universiteti (Myunxen, Germaniya); Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli: milliy tib tizimi, tabiblar faoliyatining saqlanib qolishi hamda mustamlaka hukumatining ularga qarshi siyosat yuritmaganligi va buning sababi sifatida Imperiya hukumatida Turkiston bo‘ylab tibbiyotni to‘la joriy etish imkoniyatining yo‘qligi dalillangan Maks Planka (Bavariya, Germaniya); har qanday siyosiy tizim tibbiyotni qurol sifatida ishlatishi mumkinligi, bu hodisa aynan Turkistonda mustamlakachilik siyosatini yuritish asnosida Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilganligi va uning natijasida milliy tib an’analarining tanazzulga qarab ketganligi aniqlangan Sharq tillari va sivilizatsiyalari instituti (Parij, Fransiya); 18-yuzyillik oxirida Turkistonda yuqumli kasalliklarning tarqalishi va hukumatning bunga qarshi harbiylar yordamida qat’iy choralar ko‘rishi, aholi esa, olib borilayotgan tibbiy siyosatni to‘la anglab yetmasligi natijasida turli xil xalq qo‘zg‘olonlariga sabab bo‘lganligi asoslangan Avstriya Fanlar akademiyasining Markaziy Yevroosiyoda islomni o‘rganish qo‘mitasi (Vena, Avstriya); Turkistonda barcha davlat idoralari kabi tibbiy muassasalar ham, avvalo, shaharning ruslar yashaydigan qismida tashkil qilinganligi va o‘lkada butun boshli tibbiy tizim harbiylar qo‘li bilan boshqarilganligi hamda buning siyosiy sabablari dalillangan Oltay davlat pedagogika universiteti (Oltay, Rossiya); Turkiston o‘lkasida mustamlaka hukumati o‘zining tibbiy siyosatini g‘oyaviy jihatdan mustahkamlash maqsadida ayollar va bolalar uchun bir muddat bepul tibbiy xizmatni joriy etganligi asoslangan Ch. Valixonov nomidagi Tarix va etnologiya instituti (Olmaota, Qozog‘iston), Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan ijtimoiy siyosati, jumladan, tibbiy soha uchun ham muntazam ravishda davlatning kam mablag‘ ajratib borishi natijasida imperiya tugagunga qadar tibbiy tizim mablag‘ tomondan qiyinchiliklarga duch kelgani dalillangan “Qirg‘iziston-Rossiya slavyan univesiteti” davlat oliy kasb-hunar ta’limi muassasasi (Bishkek, Qirg‘iziston).

Jahonda Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida tibbiyot va salomatlik masalari bilan bog‘liq quyidagi tadqiqotlar olib borilmoqda: o‘lkada istiqomat qiluvchi turli aholi toifasining ovqatlanish ratsioni va uning salomatlikka ta’siri; Turkiston o‘lkasida shifobaxsh dorivorlarni yetishtirish va savdo munosabatlarida bu mahsulotlarning tutgan o‘rni masalasi; Turkiston general-gubernatorligi va yarim vassal maqomidagi amirlik, xonlik aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘zaro o‘xshashliklar va o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarni o‘rganish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkistonda tib an’analari va tibbiyot tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarni davriy jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1. 19-yuzyillik oxiri – 20-yuzyillikning 20-yillariga qadar yaratilgan adabiyotlar; 2. 1917 – 1991-yillarda yaratilgan adabiyotlar; 3. 1991-yildan keyingi tadqiqotlar.

Tadqiqotning tarixshunosligi shuni ko‘rsatadiki, Turkiston o‘lkasida milliy tib an’analari va tibbiyot tarixiga doir ilmiy izlanishlar, tibbiyot, tarix, manbashunoslik, jamiyatshunoslik, huquqshunoslik fanlari nuqtai-nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, asosiy e’tibor o‘lkada faoliyat yuritgan shifokorlar, hududga xos kasalliklarning

xususiyatlari, ayrim mahalliy davolash usullari hamda milliy tibga oid bo‘lgan asarlar tahlili asosida amalga oshirilgan. Mavzuning tarixshunosligi mazkur dissertatsiyaning 1 bobida batafsil bayon etilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Volksvagen fondining “Daryoning ijtimoiy hayoti: Norin-Sirdaryoning ekologik tarixi, ijtimoiy dunyoqarashi va nizolarni boshqarish” nomli xalqaro ilmiy loyihasi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda OT-A1-127-“O‘zbeklarning zamonaviy etnoekologik madaniyati” (2017–2018)” nomli amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 19-yuzyillik oxiri – 20-yuzyillik boshlarida Turkiston o‘lkasida milliy tibga xos an’analar hamda mustamlaka hukumatining tibbiy siyosati va uning oqibatlari masalasini tarixiy-etnologik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkistonda sog‘liqni saqlash an’analarining hududiy va umummintaqaviy xususiyatlarini tarixiy-etnografik jihatdan ochib berish;

Hududda faoliyat yuritgan tabiblar va ularning faoliyatiga doir an’analarni etnografik materiallar asosida tahlil qilish;

Turkiston general-gubernatorligining tibbiyot sohasidagi siyosatidan ko‘zlangan maqsadlarni ko‘rsatib berish;

Turkistonda general-gubernatorlik tomonidan mintaqada olib borilgan tibbiy kadrlar siyosatini tahlil qilish;

Tibbiy sohadagi moliyaviy siyosat va tibbiy muassasalarni tashkil qilish masalasini tadqiq etish;

Milliy tib an’analari va mustamlaka tibbiyotini joriy etishdagi vaziyatni etnografik ma’lumotlar asosida o‘rganish;

Hukumatning milliy sog‘liqni saqlash tizimiga nisbatan munosabatini va tabiblar faoliyatiga bo‘lgan qarashlarini tarixiy-etnografik tahlillar asosida ochib berish;

Turkistonlik ziyolilarning tibbiy tizimga bo‘lgan qarashlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida 19-yuzyillik oxiri va 20-yuzyillik boshlarida Turkiston o‘lkasida milliy tib an’analari va uning mintaqaviy xususiyatlari hamda mustamlaka hukumatining tibbiy siyosati tarixi olingan.

Tadqiqotning predmetini Turkistonda milliy tib ilmi va uning an’anaviy ko‘rinishlari, etnohududiy xususiyatlari, o‘lkada mustamlaka hukumati tomonidan yangi tizimni boshqarilish siyosati va unda diniy, etnik va siyosiy omillarning tutgan o‘rni hamda an’anaviy va zamonaviy tibbiy qarashlarning o‘zaro qorishuvi kabi muammolarni tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida strukturaviy, tizimli va tizimli-funksional tahlil, muammoli, dinamik tahlil, statistik-qiyosiy solishtirish, xronologik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

19-yuzyillikda Turkistonda sog‘liqni saqlash ishlari, asosan, shifoxonalar (*jamoat shifoxonalari va maxsus kasalxonalar*), sog‘lomlashtirish sihatgohlari

(*hammomlar, qum va tuz konlari, shifobaxsh buloqlar*) va xususiy davolash maskanlarida (*tabib uyi, guzar va bozorlardagi maxsus joylar*) hakimlar, sartabiblar tomonidan amalga oshirilganligi dalillangan;

Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Turkistonda tozalik, ozodagarchilikni ta'minlash uchun mahalla yoki guzar oqsoqoli, shuningdek, muhtasib mas'ul bo'lganligi, bosqindan so'ng esa, boshqaruv harbiylarga o'tib, yuqoridagi kabi vazifalar hududlardagi bosh shifokorlar hamda tibbiy politsiyaga yuklatilganligi aniqlangan;

Turkistonda tibbiy sohadan Rossiya imperiyasi strategik maqsadda foydalanib, shifoxonalar asosan, "yangi shahar"larda barpo etilganligi, milliy mutaxassislar tayyorlanmaganligi, xususiy dorixonalar ochishda cheklovlar o'rnatilganligi (*Rossiya universitetini tamomlash sharti*) asoslangan;

Mustamlaka tibbiyotining milliy tib an'analariga ta'siri aholining salomatlik madaniyatidagi o'zgarishlarida (*dorivorlarning halolligini unutilishi, tabiblar faoliyati va ularga haq to'lash usullarining o'zgarishi*), an'anaviy davolash usullarining (*mistik davolash hamda parhez, kimod va qortiq qilish)* rad etilishida hamda soha vakillari (*tabiblar, dorigarlar, attorlar*) faoliyatining cheklanishida aks etishi ko'rsatib berilgan;

20-yuzyillik boshlarida ijtimoiy hayotda tibbiyotdan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi bois aholi orasida tizimli muammolar (*yuqumli kasalliklar va epidemiyalar, bolalar o'limi, birinchi tibbiy xizmat yetishmasligi*) yechilmay qolayotganligi hamda milliy tib asosiy xizmat turi sifatida saqlanishi dalillangan;

Xalq orasida tabib sifatida tanilgan turkistonlik ziyolilar sohaning ichki muammo va kamchiliklarini bartaraf etish, yangi tib tizimini yaratish (*Mirzo Siroj Mahdum, Mahmud Yayfoniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy*), milliy tib tizimini Yevropa tibbiyoti bilan uyg'unlashtirish (*Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat*), kadrlar tayyorlashni takomillashtirish (*Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy*), tibbiy dunyoqarashni o'zgartirish (*Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy*) borasidagi masalalarni kun tartibiga olib chiqqanligi tarixiy manbalar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Turkistonda tibbiy an'analarning o'ziga xosligi va rivojlanish tarixiga doir asarlar, arxiv hujjatlari, statistik to'plam va hisobotlardan tashqari, milliy ziyolilarning sog'liqni saqlashga doir qarashlari, o'rganilgan davr milliy matbuotida mazkur masalaga oid e'lon qilingan nashrlar ilmiy iste'molga kiritilib, ular asosida o'lkada an'anaviy va zamonaviy tibbiyot tarixi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni kabi masalalar ochib berilgan;

19-yuzyillik ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlari milliy va zamonaviy tibbiyot tarixiga oid ilmiy xulosalar zamonaviy fan tarmoqlari (tarix, tibbiyot, etnologiya, tibbiy antropologiya, madaniyatshunoslik) yo'nalishlaridagi izlanishlarga asoslangan va arxiv hujjatlari, tibbiy va tarixiy manbalar, shuningdek Turkiston davriy matbuotidagi 30 ga yaqin maqolalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, matbuot

materiallari va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Turkistonda milliy tibbiy tizim va uning tarkibiy tuzilishi, sohaga doir an'anaviy tajribalar hamda zamonaviy tibbiyotning kirib kelish tarixi hamda uni joriy etishdagi muammo va yutuqlar, hukumatning bu borada olib borgan siyosatiga doir tarixiy-etnologik bilimlarni ommalashtirish tibbiy antropologiya yo'nalishi doirasida ilmiy izlanishlar taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Turkistonda tibbiyot tarixi hamda yuzyilliklar davomida shakllangan tibbiy an'analarning xususiyatlarini o'rganishda, tarixiy bilimlarni rivojlantirishda, sohaga oid muzeylardagi mavjud ekspozitsiyalarni tarixiy ma'lumotlar bilan boyitish va yangilashda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tibbiy kadrlar tayyorlash va darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda qo'shimcha adabiyotlar tayyorlash borasida davlat dasturlarini bajarishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turkistonda tibbiy tizim tarixi va an'analariga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

19-yuzyillikda Turkistonda sog'liqni saqlash ishlari, asosan, shifoxonalar (*jamoat shifoxonalari va maxsus kasalxonalar*), sog'lomlashtirish sihatgohlari (*hammomlar, qum va tuz konlari, shifobaxsh buloqlar*) va xususiy davolash maskanlarida (*tabib uyi, guzar va bozorlardagi maxsus joylar*) hakimlar, sartabiblar tomonidan amalga oshirilganligi haqidagi xulosalardan OT-A1-127 raqamli "O'zbeklarning zamonaviy etnoekologik madaniyati" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi 3/1255-495-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi milliy sog'liqni saqlash tizimi hamda uning etnohududiy o'ziga xoslik kasb etishi kabi omillarni tarixiy, etnologik manbalar asosida yoritib berishga xizmat qiladi;

Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Turkistonda tozalik, ozodagarchilikni ta'minlash uchun mahalla yoki guzar oqsoqoli, shuningdek, muhtasib mas'ul bo'lganligi, bosqindan so'ng esa, boshqaruv harbiylarga o'tib, yuqoridagi kabi vazifalar hududlardagi bosh shifokorlar hamda tibbiy politsiyaga yuklatilganligi haqidagi xulosalardan XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati" nomli jamoaviy monografiyani yozishda foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi 3/1255-495-son ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi Turkistondagi an'anaviy tibbiy tizim hamda uning tuzilmalari, sohaga doir tibbiy an'analarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratgan;

Turkistonda tibbiy sohadan Rossiya imperiyasi strategik maqsadda foydalanib, shifoxonalar asosan, "yangi shahar"larda barpo etilganligi, milliy mutaxassislar tayyorlanmaganligi, xususiy dorixonalar ochishda cheklovlar o'rnatilganligi (*Rossiya universitetini tamomlash sharti*) kabi ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalidagi ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-yanvardagi 02-06-189-son ma'lumotnomasi).

Bu materiallar ushbu ko‘rsatuvlar mazmunini mukammallashtirishga, ilmiy dalillar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Mustamlaka tibbiyotining milliy tib an’analariga ta’siri aholini salomatlik madaniyatidagi o‘zgarishlarda (*dorivorlarning halolligini unutilishi, tabiblar faoliyati va ularga haq to‘lash usullarining o‘zgarishi*), an’anaviy davolash usullarining (*mistik davolash hamda parhez, kimod va qortiq qilish)* rad etilishida hamda soha vakillari (*tabiblar, dorigarlar, attorlar*) faoliyatining cheklanishida aks etishi kabi jihatlaridagi xulosalardan OT-A1-127 raqamli “O‘zbeklarning zamonaviy etnoekologik madaniyati” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi 3/1255-495-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi 19-20 yuzyillikda aholining salomatlik madaniyati hamda an’anaviy davo usullarining mintaqaviy xususiyatlari hamda umumiy shakllari kabi omillarni tarixiy, etnologik manbalar asosida yoritishga xizmat qiladi;

20-yuzyillik boshlarida ijtimoiy hayotda tibbiyotdan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi bois aholi orasida tizimli muammmolar (*yuqumli kasalliklar va epidemiyalar, bolalar o‘limi, birinchi tibbiy xizmat yetishmasligi*) yechilmay qolayotgani hamda milliy tib asosiy xizmat turi sifatida saqlanishi haqidagi xulosalardan “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati” nomli jamoaviy monografiyani yozishda foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi 3/1255-495-son ma’lumotnomasi). Bu xulosalar Turkistonda mustamlaka tibbiy siyosatini olib borishdan ko‘zlangan maqsad hamda hukumatning milliy tibbiy tizimga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish sabablarini o‘rganish imkoniyatini bergan;

Xalq orasida tabib sifatida tanilgan turkistonlik ziyolilar sohaning ichki muammo va kamchiliklarini bartaraf etish, yangi tib tizimini yaratish (*Mirzo Siroj Mahdum, Mahmud Yayfoniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy*), milliy tib tizimini Yevropa tibbiyoti bilan uyg‘unlashtirish (*Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat*), kadrlar tayyorlashni takomillashtirish (*Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy*), tibbiy dunyoqarashni o‘zgartirish (*Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy*) borasidagi masalalarni kun tartibiga olib chiqqanligi kabi ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalidagi ko‘rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-yanvardagi 02-06-189-son ma’lumotnomasi). Bu materiallar ushbu ko‘rsatuvlar mazmunini mukammallashtirishga, ilmiy dalillar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta monografiya, Oliy Attestasiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shu jumladan, 4 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertassiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 247 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning O‘zbekiston fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy tadqiqot usullari ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning “**Mavzuning ilmiy nazariy asoslari hamda manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida masalani o‘rganishga doir ilmiy nazariy qarashlar bayon qilingan va mavzu bo‘yicha manbalar tadqiq qilinib, tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil etilgan. Mazkur bobning ***“Mavzuga doir ilmiy nazariy qarashlar”*** deb nomli 1-paragrafida tib tarixini o‘rganishga oid qarashlar tahlil qilingan. XX asrning 70-yillarida tarix fanida ham ijtimoiy va madaniy sohadagi tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi va ijtimoiy tarix doirasida tibbiyot tarixini ham tadqiq qilish boshlandi. Tib tarixini o‘rganuvchi olimlar uni bir qancha sohalarga va davrlarga bo‘lib tasnif qilishgan. Bularni ichida keng qo‘llaniladigani norvegiyalik olim Anne Kveim Liening[3] qarashi bo‘lib, u tibbiyot tarixini uch xil: tibbiyotning ijtimoiy tarixi; madaniy tarixi; ilmiy tarixi ko‘rinishida tasniflaydi. Ammo so‘nggi yillarda sohani tarixiy va madaniy antropologiya yo‘nalishida o‘rganish kun tartibiga chiqdi. Jumaladan, sohani muhojirlar hayoti orqali, mintaqaviy makonga borib o‘rganish hamda bir mamlakat tarkibidagi etnik guruhlarni o‘rganish shular jumlasidandir. Shuningdek, keyingi yillarda hukmron davlatlar o‘z mustamlakalarida tibbiyotni boshqaruv quroli yoki strategik yo‘nalish sifatida foydalangani masalasi nuqtai-nazaridan tadqiq qilish vujuga keldi. Ushbu tadiqoqtda milliy tib an’analari - tarixiy antropologik, mustamlaka tizimi olib kelgan tibbiyot tarixi esa siyosiy vosita (instrumentalizm) sifatida tahlil qilingan.

Tibbiyotni mustamlakachilik vositasi sifatida o‘rganish: o‘tgan yuzyillikning 60-80-yillarida tibbiyotni mustamlaka quroli sifatida tadqiq qilish, uni imkoniyatlaridan mustamlakachi davlatlar strategik maqsadda foydalanganiga oid nazariyalar ilgari surildi. 20-yuzyillikning 80-yillarida tarixchilar qaram hududlardagi islohotlarni mustamlakachi davlatlar tilidan o‘rganishni chetga surib, masalani pastki nuqtadan: qaram hududlardagi siyosat, boshqaruv shaklini o‘rganishdan boshlashdi. Natijada, mustamlaka tibbiyoti repressiv kuch, “imperiya quroli”[4], milliy aholini manipulyatsiya obyektiga aylantirgan nazorat usuli sifatida baholandi. Tibbiyotni boshqaruv quroli sifatida talqin qilgan tadqiqotchilar quyidagilarga e’tibor qaratgan:

[3] Lie A. New perspectives in medical history // New Norwegian journal. 2008. № 25. – P. 157-68.
[4] Headrick D. The tools of Empire: technology and European imperialism in the XIX century. – Oxford: Oxford University press, 1981. – 221-p.

a) mustamlakalarda tibbiyotni yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan maqsad*:* ilk tadqiqotlarda “mustamlakachi davlat o‘z hududlariga yangi tibbiy qarashlarni olib kirgan islohotchi”, degan fikr ustunlik qilgan bo‘lsa, 20-yuzyillikning 90-yillaridan bu qarash inkor etildi. Ya’ni, hokimiyat bu ishni o‘lka aholisining salomatligini asrash uchun emas, balki o‘z odamlarining xavfsizligi uchun amalga oshirgan[5], deyildi. Jumladan, Turkiston o‘lkasida ham ilk tibbiy muassasalar 1868-yilda ochilgan harbiy ko‘chma kasalxona bo‘lib, u 1870-yilda turg‘un kasalxonaga aylantirilgan[6]. 19-yuzyillikning 80-yillarida tashkil qilingan jamoat shifoxonalari ham shaharning ruslar yashaydigan qismida joylashgan edi. Turkistonliklar yashaydigan “Eski shahar”da tashkil qilingan jamoat shifoxonalari, dorixonalar ham rus shifokorlari va xodimlarga qulay nuqtalarda va “yangi shahar” qismiga yaqin joylarda tashkil qilingan.

b) Mustamlakalarda tibbiyotdan foydalanish qoidalari: mustamlakachi davlat qo‘l ostidagi hududlarda tibbiy xizmatni ma’lum qolipga solib, qaram aholini yangi tartibga bo‘ysunishga va shu orqali, boshqaruvni osonlashtirishga harakat qilgan. Aksariyat mustamlakalarda tibbiy tizim harbiy qoidalar asosida boshqarilgan. Bemor muassasaga maxsus ruxsatnoma orqali kelishi, u yerga navbat bilan kirishi kabi tartiblarga bo‘ysunishi kerak edi. Bu murakkab ketma-ketlik orqali mustamlaka hukumati o‘lka aholising tanasini manipulyatsiya qilish darajasiga borgan[7]. Jumladan, Turkiston o‘lkasidagi harbiy kasalxonalarga harbiylar, xizmatchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, boshqa bemorlar politsiya so‘roviga ko‘ra qabul qilingan.

v) mustamlakada ishlagan quyi (*sanitar, tarjimon*) tibbiyot vakillarining faoliyati tahlili: 20-yuzyillikning 60-yillariga qadar mustamlakalardagi tibbiy vaziyat bosh shifokorlarning hisoboti, xotiralari, statistik ma’lumotlarga tayanib o‘rganilgan. Shifokorlarning asarlari asosida hukumat o‘z tibbiyoti tarixini zafarli ruhda – hududiy kasalliklar, epidemiyalar ustidan g‘alaba qozongan kuch sifatida taqdim etgan[8]. Turkistondagi tibbiy holat ham g‘arb davlatlariga qaram o‘lkalardan farq qilmasdi. Jumladan, shifokorlarni asarlarida o‘lkadagi og‘ir tibbiy vaziyatni o‘nglashda mustamlaka davlatning ilg‘or yutuqlari zarurligi keltirib o‘tilgan[9]. Lekin quyi bo‘g‘indagi shifokorlarning yozishmalari, arizalari, chop etilgan xabar va arxiv hujjatlarini o‘rganish natijasida mustamlaka tibbiyotining ahvoli, hukumatning kadrlar tayyorlash va muassasalarni tashkil qilishdagi sustkashliklar tahlil qilindi[10].

Shuningdek, hukumat tibbiyotdan strategik maqsadni ham ko‘zladi va unga iqtisodiy foyda olish vositasi deb qaradi. Milliy aholiga bir muddat bepul xizmatni joriy etish orqali turkistonliklarni bu tizimga o‘rgatish va mijozlar soni oshishi bilan xizmatni qayta pullik qilib, xarajatlarni qoplash maqsad qilingan. O‘lkadagi giyohlar,

---

[5] Arnold D. Colonizing the body: state medicine and epidemic disease in XIX -century India. – Berkeley: University of California press, 1993. – 159-199-pg.

[6] Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем. – Ташкент, 1912. – 326-327-стр.

[7] Vaughan M. Curing their ills: Colonial power and African illness. – Stanford: Stanford University, 1991. – 55-pg.

[8] Афанасьева А. “Инструмент империи”- медицина в европейской колониальной истории // Диалог со временем. Альманах интеллектуальной истории. – Вып. 69. – 2019. – С. 299.

[9] Кушелевский В. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской долины. –Том 2. – Новый Маргилан, 1891; Колосов Г. О народном врачевании сартов и киргиз Туркестана. – СПб. 1903; Шварц А. 25-летие первой мужской лечебницы в туземной части Ташкента. – Ташкент, 1911.

[10] O‘zbekiston milliy arxivi (O‘z MA). I-717-jamg‘arma, 1-yig‘majild, 35-ro‘yxat. 163-varaq; MA. I-3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 567-yig‘majild, 374-375-varaq; O‘z MA. I-1-jamg‘arma, 7-ro‘yxat, 379-yig‘majild, 53-varaq.

ma’danlarni shifobaxsh xususiyatlarini o‘rganish orqali esa uni chetga sotib, foyda olish ko‘zlangan edi.

Qisqasi, 20-yuzyillikning 60-yillariga qadar masalani faqat shifokorlar o‘rganib, ularning qarashlari natijasida tibbiyot tarixi yaratilgan bo‘lsa, 60-yillardan keyin vaziyat tubdan o‘zgardi. Shundan boshlab, masalani boshqa soha vakillari o‘z nazariyalari va qarashlari asosida o‘rganishi kuchayib bordi. Tibbiyot tarixini tarixchilar va antropologlar tomondan o‘rganilishi asosida o‘zgarmas deb qabul qilingan g‘oyalar, qarashlar qayta ko‘rib chiqildi, yangi nazariyalar yuzaga keldi.

Birinchi bobning ***“Turkistonda milliy tib va tibbiyot tarixiga oid manbalar tahlili”*** deb nomlangan ikkinchi paragrafida mavzuga oid manbalar quyidagi guruhlarga ajratib tadqiq qilindi. *a) tib tarixiga oid qo‘lyozma manbalar:* “Navodirul vaqoe”[11] asarida salomatlik madaniyatiga doir qarashlar: sog‘lom turmush tarziga rioya etish, salomatlikni asrashi borasidagi tadbirlar tilga olingan. “Xorazm navozandalari”da esa xonlikdagi yuqori martabali vakillarga mo‘ljallangan muassasa hamda a’yonlarning salomatligiga oid ma’lumotlar qayd etilgan[12]. “Qonuni Bositiy”[13]da tabiblikni o‘rganish, kasbning sulolaviy ahamiyati, farzandni tabib qilib tarbiyalashga doir ma’lumotlar berilgan. “Mujarraboti Mahmudiy”[14]da davolashdan oldingi tadbirlar, davo usuli, dorilarga oid bilimlar keltirilgan. Manbalar tahlili orqali aytish mumkinki, Turkistonda milliy tib asrlar davomida yangilanib, tajribalarga asoslangan ilmlar bilan boyitilib, yashab kelgan.

b) arxiv hujjatlari: O‘zbekiston Milliy arxividagi “Turkiston general-gubernatori mahkamasi”, Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlari boshqarmasi, “Buxoro amiri qushbegisi boshqarmasi” kabi jamg‘armalardagi hujjatlarda[15] masalaning hukumat darajasida nazoratda ushlanishi, tibbiy jarayonlar general-gubernatorning roziligi bilan amalga oshirilishini ko‘rish mumkin. “Toshkent shahar mahkamasi”[16] jamg‘armasida aholining turmush tarzi, mashg‘uloti, iqlimni tib bilan mutanosibligi borasida hisobotlar mavjud. “Qo‘qon xonlari arxivi”[17]da sohani davlat tomonidan moliyalashtirilishi, dori tayyorlash va dorivorlarni xazinadan berilishi qayd etilgan. Tabiblarga “hakimboshi” yetakchilik qilishi borasida ma’lumotlar mavjud.

v) qonun va statistik to‘plamlar: Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom[18]da mustamlakachi hukumatning tibbiy tizimni tashkil qilish va boshqarishga doir ma’lumotlar aks etgan. F. Girs va K. Palen o‘z hisobotlarida[19] tibbiy

---

[11] Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. – Тошкент: Фан, 1964. – 421-бет.

[12] Бобожон Тарроҳ Азизов – ходим. Хоразм навозандалари. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1994. – 96-бет.

[13] Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. Qonuni Bositiy. Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti. Sharq qo‘lyozmalar jamg‘armasi. 8921-raqamli hujjat.

[14] Mahmud Hakim Yayfoniy. Mujarraborti Mahmudiy. Qo‘qon adabiyot muzeyi xazinasi. 70-raqamli qo‘lyozma.

[15] O‘z MA. I-1-jamg‘arma. “Turkiston general gubernatori mahkamasi”, I-3-jamg‘arma. “Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi”, I-17-jamg‘arma. “Sirdaryo viloyati boshqarmasi”, I-18-jamg‘arma. “Samarqand viloyati boshqarmasi”, I-19-jamg‘arma. “Farg‘ona viloyati boshqarmasi”, I-36-jamg‘arma. “Toshkent shahar boshlig‘i boshqarmasi”, I-125-jamg‘arma. “Buxoro amirligi qushbegisi boshqarmasi” hujjatlari.

[16] O‘z MA. I-37-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 196-yig‘majild. “Toshkent shahar mahkamasi” hujjatlari.

[17] O‘z MA. I-1043-jamg‘arma. 1-ro‘yxat. 629-652- yig‘majild. Qo‘qon xonlari arxivi.

[18] Положение об управлении Туркестанского края. – Ташкент, 1906 г. – 11-стр.

[19] Отчёт о состояния Туркестанского края, составленный Сенатором Тайного Советника Ф. Гирсом, командированным для ревизий края Высочайшему повелению. I часть. Администрация. – СПБ, 1883. – 463 стр.; Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведённой по Высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К. Паленом. Переселенческое дело в Туркестане. – СПб, 1910. – 430-стр.

muassasalarning kamligi, kadrlar yetishmasligi hamda hukumatning milliy aholining hududlarida xizmatni joriy qilishdagi sustkashligi, sohaga ajratilayotgan pulni hukmron tabaqa ehtiyojlariga ajratilgan mablag‘lar bilan o‘zaro taqqoslagan. Farg‘ona viloyati to‘plamida viloyatdagi tibbiy muassasalarning moddiy holati, moliyaviy manbasi, boshqaruv shakli hamda kadrlar faoliyatiga doir ma’lumotlar keltirilgan[20]. Samarqand viloyati to‘plamida esa Anzobda[21] kasallik geografiyasi kengaygach hukumat 3 ta tumanda tibbiy punkt ochishga majbur bo‘lgani qayd etilgan. Sirdaryo viloyati to‘plamida ham milliy tibdagi atamalarning ma’nolari, tarqalgan kasalliklar, Toshkent harbiy turg‘un kasalxonasi borasidagi ma’lumotlar aks etgan[22].

g) xotiralar, safarnomalar[23]. N. Muravyev, Ye. Meyendorflar tabiblarni jamiyatda tutgan o‘rni, turkistonliklar haqiqiy tabibni tashxis qo‘yish usuli orqali ham ajratib olishini keltirgan. Y. Skaylerning safar qaydlarida ham tabiblarning tashxis qo‘yish usullari qayd etilgan. Bozorlardagi dori rastalari, tabiblarga Yevropada ishlatiladigan dorivorlar ma’lum ekanligini keltirilgan. H. Vamberining qaydlarida turkistonliklarning salomatlik madaniyatida hammomlarning tutgan o‘rni, hammomlarda davolash ishlarini tashkil qilishga doir ma’lumotlar aks etgan. H. Lansdelda Toshkentdagi kasalxonani tarkibiy qismi va boshqaruvga oid ma’lumot mavjud. A. Makinning ta’kidlashicha, Turkistonda Buxoro madrasalarini tugatgan tabiblar obro‘li va bilimli sanalgan. O. Olufsonda milliy tabiblar va sartaroshlar faoliyati hamda o‘lkaga xos kasalliklarga doir ma’lumotlarni qayd etgan.

d) davriy matbuot: Mustamlaka tibbiyotini ustunligi borasida “Туркестанские ведомости”, “Туркестанский курер”, “Окраина”, “Turkiston viloyatining gazeti” kabilarda ma’lumot berilgan[24]. “Oyna”, “Sadoi Farg‘ona”, “Samarqand”, “Tarjimon”, “Sadoi Turkiston”, “Tujjor”[25] va boshqa jurnal va gazetalarda esa hududdagi tibbiy ahvol, tizimning ehtiyojlarni qondirolmayotgani kabi masalalarga urg‘u berilgan. Milliy matbuotda o‘lkada tarqalgan yuqumli kasalliklar va ulardan milliy aholining ko‘proq zarar ko‘rgani[26], kasalliklarni bartaraf qilish yo‘llari[27] farzandlarni shifokor qilishga undovchi chaqiriqlar[28] uchraydi.

Uchinchi paragraf ***“Mavzuning tarixshunosligi”*** deb nomlanib, adabiyotlar quyidagicha tahlil qilindi: *a) 19-yuzyillik oxiri–20-yuzyillikning 20-yillariga qadar*

---

[20] Обзор Ферганской области за 1890 год. – Новый Маргелан, 1893. – 96-стр.

[21] Афрамович К. Рисовые поля и лихорадки / Справочной книжке Самаркандской области за 1902 год. – Самарканд, 1902. – 163-стр.

[22] Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. –Ташкент, 1904. – 378-399 стр.

[23] Мейендорф Е. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – 150-стр; Shuyler E. Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara and Kuldja. Vol. I. – New York, 1876. – 463-p.; Вамбери Г. Очерки и картины восточных нравов. – СПб., 1877. – 350-стр; Lansdell H. Russian Central Asia includin Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Vol II. – London, 1885. – 722-p.; Meakin A. In Russian Turkestan a garden of Asia and its people. – London, 1903. – 345p Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. – Copenhagen, 1911. – 612-p.

[24] *Qarang*: Туркестанские ведомости. 1872-yil, 1-son; 1883-yil, 42-son; 1888-yil, 8 va 10-son; 1903-yil, 53 va 75-76-son; 1912-yil, 208-son; 1913-yil, 113-son; Туркестанский курьер. 1909-yil, 172-173-174-son; Окраина. 1895-yil, 61-73-son; Turkiston viloyatining gazeti. 1897-yil, 12-son; 1899-yil, 12-son; 1910-yil, 4-son; 1916-yil, 62-son.

[25] *Qarang:* Samarqand. 1913-yil, 30-avgust; Sadoi Turkiston. 1914-yil, 24-iyun; Tujjor. 1907-yil, 28-avgust, 25-sentabr; Mehnatkashlar tovushi. 1921-yil, 239-son; Mehnatkashlar o‘qi. 1918-yil, 4-son; Turkiston. 1922-yil, 14-dekabr, 1923-yil, 24-dekabr.

[26] “Tarjimon” gazetasi, 1883-yil, 10-aprel; 1884-yil, 25-dekabr; 1885-yil, 17-yanvar; 1888-yil, 8-fevral, 5-sentabr; 1889-yil, 31-iyul, 8-sentabr; 1890-yil, 18-mart, 8-iyun, 17-iyun, 1912-yil 2-fevral; 1916-yil 8-mart sonlari.

[27] “Sadoi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil, 29-iyun, 17-iyul, 21-iyul, 3-sentabr sonlari.

[28] “Oyna” jurnali, 1913-yil, 5-son; 1914-yil, 33, 48-sonlari.

yaratilgan adabiyotlar. Bu adabiyotlarda Rossiya imperiyasining Turkistonga mustamlaka tibbiyotini olib kirishi, milliy tibbiy qarashlar haqida ma'lumotlar berilgan. V. Kushelevskiy, G. Kolosov, A. Shishov, D. Logofetlarning asarlarida[29] Turkistonga yangi tizimni olib kirish natijasida erishilgan o'zgarishlar qayd etilib, dorivorlar, davolash bilan shug'ullanuvchi boshqa kasb egalari, ish qurollari sanab o'tilgan[30]. I. Krauze, V. Lipskiy, N. Monteverde, N. Ostroumovlar mistik, empirik tibning hududiy xususiyatlari, o'lkaning nabotot va hayvonot olamiga e'tibor qaratgan[31]. O'lka vakillaridan Abdurauf Fitrat, Hoji Muin, Vadud Mahmud[32] milliy tibning yutuq va kamchiligi, xalqning salomatlik madaniyatiga oid holatlarni qayd etishgan. Bu davrda yaratilgan asarlarning aksariyati tavsifiy bo'lib, mustamlakachi hukumatning sa'yi-harakati evaziga Turkiston o'lkasida aholi uchun zarur tibbiy ehtiyojlar qondirilganiga doir g'oya(*milliy ziyolilardan tashqari*) ustunlik qiladi.

b) 1917–1991-yillarda yaratilgan adabiyotlar. Bu davrda masalaga qarash ikki xil bo'ldi. Birinchisi, o'tgan davrga ijobiy qarash: bu Turkistonda faoliyat yuritgan shifokorlar, ularning mehnatiga bo'lgan munosabatda aks etadi. N. Yuldashev, B. Palkin, M. Mahmudov, M. Sharipovlarning asarlarida shifokorlarning mehnat qiyinchiliklarini yengishi, sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishdagi jasorati, xizmat maydoni kengligiga qaramay burchlarini sodiqlik bilan bajarganligi ta'kidlangan[33]. Y. Gendlina, V. Romashko, Y. Tadjiyev, N. Sokolova, A. Xusanbayevalar mustamlaka tibbiyotini o'lkaga kelishi yangi taraqqiyot davrining boshlanishi, tizimda ijobiy o'zgarishlarning ko'zga tashlanishi deb baholaganlar[34].

Davrga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga sovet hukumatining turkistonliklar hayotida haqiqiy tub burilish o'zlari tufayli yuz berganligini ko'rsatishga uringani sabab bo'ldi. Jumladan, M. Aliyev, B. Lunin, V. Galiyevlar 1917-yildan oldin shifokorlarning kamligi, muassasalar ahvoli, aholining qamrov darajasini keyingi davr bilan solishtirish orqali tizimda bir necha baravar sakrash

---

[29] Кушелевский В. Материалы медицинской географии и санитарного описания Ферганской области... – 295-стр; Колосов Г. О народном врачевании сартов и киргизов Туркестана. – Спб., 1903. 3-92 стр; Шишов А. Сарты. Ч. I. // Сборник материалов для статистики Сыръ-Дарьинской области. – Ташкент: 1904. – 1-492-стр; Логофет Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 2. – Спб. 1911. – 357-стр.

[30]Лыкошин Н. Сартарашъ (туземный брадобрей и цирюльникъ) // ТВ. – 1903. №75; Рык Б. Бухарские хирурги // ТВ. 1903. №53; Диваев А. Баксы // ТВ. 1908. №160; М. Г. Сартовская медицина // ТВ. 1912. №208.

[31]Краузе И. Заметки о медицинских и некоторых промышленных растениях в Средней Азии // Русский Туркестан. Вып. II. – Москва, 1872. – С. 262–273; Липский В. Флора Средней Азии, Русского Туркестана и ханств Бухары и Хивы. Ч. I. – Спб. 1902. – 244-стр; Монтеверде Н., Гаммерман А. Туркестанская коллекция лекарственных продуктов Музея Главного Ботанического Сада // Изв. Главн. ботан. сада. Т. 26. Вып. IV. – Л., 1927. – С. 291–358; Остроумов Н. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент, 1896. – 286-стр.

[32] Абдурауф Фитрат. Нажот йўли. – Тошкент: Sharq, 2002. – 217 бет.; O'sha muallif. Хинд сайёҳи баёноти / Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 156-бет.; Hoji Muin. Tibb va hifzus-sihhatda rioyatsizligimiz // Oyna. 1914-yil 7-iyul, 33-son. Vadud Mahmud. Turkistonda mayxo'rlik // Turkiston. 1923 yil 24 dekabr.

[33] Юлдашев Н. О состоянии здравоохранения в бухарском ханстве во второй половине XIX и в начале XX века // Медицинский журнал Узбекистана (МЖУ). 1959. №4. – С. 62-67; Палкин Б. Медицинская служба Сыр-Дарьинской линии в середине XIX века // Советское здравоохранение (СЗ). 1965. №1. – С. 54-58.; Махмудов М. Первые женщины-врачи в дореволюционном Туркестане // СЗ. 1988. №8. – С. 68-70.

[34] Гендлина Ю. Некоторые вопросы здравоохранения в Туркестанском крае в «Справочной книжке Самаркандской области» // Здравоохранение Таджикистана (ЗТ). 1975. №5. – С. 43-47; Таджиев Я. Состояние медицинской помощи населению Средней Азии в до революционного периода // ЗТ. 1970. №6. – С. 46-50. Хусанбаева А. Из истории земской медицины в Узбекистане // Материалы научной конференции ТашМИ. Том 26. Вып. 6. – Ташкент: Медицина, 1969. – С. 26-28.

bo‘lganligiga e’tibor qaratishgan[35]. Y. Gendlina, H. Hikmatullayevlar xastaliklarni xalqona davolash usullari, mintaqadagi turli etnoslarning davolash bilan bog‘liq an’analari va 19-yuzyillikda faoliyat yuritgan shoir Xoziq misolida milliy tibda shaxs faoliyati masalasiga to‘xtalganlar[36].

d) 1991-yildan keyin yaratilgan adabiyotlar. Milliy adabiyotlar: Mustaqillikning ilk davrida yaratilgan tadqiqotlarda o‘lka aholisining ozodagarchilik holatini yomonligi, mustamlaka tibbiyoti natijasida aholining epidemiya va boshqa kasalliklardan forig‘ bo‘lgani haqidagi qarashlar ustunlik qiladi. M. G‘oyibov, M. Mahmudov, Sh. Yuldashevalar Turkistonda ishlagan shifokorlar misolida hukumatni tibbiy islohotchi sifatida ko‘rsatadi[37]. Shuningdek, A. Qodirov, B. Lunin, N. Kamalovalarning ishlarida ruslar tibbiyotni o‘lka aholisining manfaatlari sababli joriy etganligi qayd etiladi[38]. So‘nggi yillarda masalaga tarixchi, tibbiyot xodimlari, sotsiologlarning qarashlari natijasida talqinlar va tibbiyotni joriylash borasidagi yangi nazariyalar yuzaga keldi. Bu borada D. Asadov, A. Qosimov, G. Qurbonovalarning tadqiqot ishlarini qayd etish lozim[39]. Tarixchilar tomonidan yangi arxiv hujjatlari muomalaga kiritildi, manbalar tadqiq etildi. Jumladan, S. Shodmonova, G. Mo‘minova, M. Isakova, A. Tog‘ayevalarning izlanishlarini ta’kidlash joiz[40]. S. Shodmonova Turkiston general-gubernatorligida tibbiyotni ahvoli va shifokorlarning faoliyati borasida izlanishlarni amalga oshirib, qimmatli ma’lumotlarni muomalaga kiritgan[41]. G. Mo‘minova 1865-1917-yillarda tibbiy holat, tabiblar faoliyati, xizmatning ahvolini o‘rgangan[42]. N. Shirinova, A. Badalov,

[35]Лунин Б. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Ташкент: АН УзССР, 1962. – 344-стр; Галиев В. Медицинская деятельност ссыльных революционеров в Казахстане (второй половина XX века). – Алма-Ата: Казахстан, 1982. – 160-стр; Алиев М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине // СЗ. 1986. №9. – С. 73-75.

[36] Қодиров А. Об узбекской народной медицине // Сборник научных трудов “Министерство здравоохранения Уз ССР ТашМИ”. Том XX. – Тошкент, 1961. – С. 15-22; Гендлина Ю. О медицинских школах и медицинских знаниях Средней Азии в эпоху феодализма // ЗТ. 1974. №6. – С. 49-51.; Абдуллаев А. Народная медицина Хорезма // СЗ. 1977. №5. – С. 82-85; Ҳикматуллаев Ҳ. Шоир Хозиқнинг тиббий асарлари ва табиблиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1969. №3. – Б. 50-52.

[37] Ғойибов М. ва бошқ. Хива табобати. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1995. – 56-бет; Усмонов Ш. Илк шифо масканлари // Фан ва турмуш. 1998. №6. – Б. 28-29.; Махмудов М. История медицина и здравоохранения Туркестана, Бухары и Хорезма (1865-1924 г.г.). – Тараз: ТарМПИ, 2015. – 342 стр.

[38] Лунин Б. Бу хотира бўлиб қолади // Халқ ва демократия. 1992. №11-12. – Б. 48-54.; Камалова Н. Тошкентдаги илк шифхона қачон очилган // aniq.uz/yangiliklar/toshkentdagi-ilk-shifoxona-qachon-ochilgan.

[39] Асадов Д. ва бошқ. Маҳмуд Ҳаким Яйфоний-Ҳўқандий XX аср Шарқ табобатининг шифокор олими // O‘TJ. 2012. №5. – Б.96-99.; Асадов Д., Касымов А. Этика Абу Бакр ар-Рази и современная медицина // O‘TJ. 2006. №3. – Б.139-141.; Kurbanova G. Professional development history of sanitary-hygiene works in the end of XIX and the beginning of XX century // Theoretical&Applied Science. 2020. №4. – P.1009-1013.

[40] Исакова М. Туркистон ўлкасида аёл-врачларнинг фаолияти // O‘tmishga nazar. 2019. №1. – Б. 32-37; Тангиров О. XIX охирлари – XX асрнинг бошларида Тошкент “эски шаҳар”да тиббий хизмат масаласига доир // Материалы международная конференция “Современные научные решения актуалных проблем”. – Ростов-на-Дону, 2020. – С. 27-30.; Назиров М. XIX-XX аср бошларида Қўқондаги халқ табобати ва замонавий соғлиқни сақлаш тизимининг шаклланиши ҳақида // O‘TJ. 2013. №6. – Б. 125-128.

[41] Шодмонова С. Туркистонда тиббиёт ходимлари ва уларнинг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Nurafshon business, 2019. – 208-бет. O‘sha muallif. Медицина и население Туркестана: традиции и новации (конец XIX – начало XX вв.) // Историческая этнология. 2017. №1. – С. 119-139.

[42] Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 336-бет; O‘sha muallif. Туркистонда тиббий хизматни йўлга қўйилиши // Ижтимоий фикр. 2010. №4. – Б. 129-131; Muminova G., Ubaidullayeva Sh. The issue of traditional medicine and women doctors in Turkestan // Multidisciplinary peer reviewed journal. 2020. №12. – P. 471-473.

R. Patxiddinovlar[43] manbalarning tib tarixini o‘rganishdagi o‘rni, mustamlaka tibbiyotini joriy qilish masalalarini ochib bergan.

Mustaqillikni ilk yillarida yaratilgan tadqiqotlar sovet davri andozalari asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, 2010-yillardan keyingi tadqiqotlarda masalani milliy manfaatlar nuqtai-nazaridan tahlilga tortish ustuvorlik kasb etgan.

Xorijiy tadqiqotlar. Qozog‘istonda yaratilgan tadqiqotlarda ikki xillik ko‘zga tashlanadi: birinchisi, imperiya hukumatini qoloq o‘lkaga tibbiyotni olib kelgan islohotchi sifatida talqin qilish bo‘lsa[44], ikkinchisi imperiya hukumatining tibbiy siyosati, milliy tibning tarixi hamda sog‘liqni saqlashda tutgan o‘rni borasidagi qarashlardir[45]. Ushbu tadqiqotlarda Turkiston xalqlarining milliy tib bilimlariga to‘xtalib o‘tilmagan va imperiyaning tibbiy masalalardan ko‘zlagan maqsadi, ko‘proq ruslar yashaydigan hududlarni qamrab olish siyosati ilmiy tahlilga tortilmagan. Tojikistonlik olimlarning izlanishlarida general-gubernatorlik va unga chegaradosh hududlardagi tibbiy ahvol, tog‘li va tekislikda yashovchi aholining tibbiy an’analari yoritilgan va ikki mintaqaning xizmat bilan qamrab olinishi, unda Rossiya imperiyasinig islohotlari muhim o‘rin tutishi borasidagi g‘oyalar saqlanib qolgan[46]. Qirg‘izistonda olib borilgan tadqiqotlarda chekka hududlarda milliy tibning saqlanish omillari yoritilgan. G. Junushaliyeva rus amaldorlarining shifokorlarni milliy aholiga yordam ko‘rsatishga qarshiligi, aholining tibbiyotga ishonchsizlik sabablari, G. Saadabayeva ko‘chmanchi qirg‘izlarning foydalanadigan dorivorlar haqida, O. Kasimov yuqumli kasalliklar tarqalganda imperiya hukumati yevropaliklar uchun xizmatni joriylash yo‘lidan borganiga urg‘u bergan[47]. Tadqiqotlar salmog‘i kam bo‘lsada Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining tibbiy siyosatini haqqoniy baholashga bo‘lgan urinish qirg‘iz tarixchilari ichida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

---

[43] Ширинова Н. XIX аср охири XX аср бошларида тиббиёт ва халқ табобатига оид тошбосма асарлар // O‘tmishga nazar. 2019. №1. – Б. 125-129.; Бадалов А. Фарғона областида соғлиқни сақлаш тизими ва ундаги ўзгаришлар: тарихий таҳлил (XIX аср охири – XX аср бошлари): тар. фан. бўйича PhD диссертацияси. – Андижон, 2023. – Б. 151; Патхиддинов Р. XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда соғлиқни сақлаш тизими: анъанавийлик // НамДУ илмий ахборотномаси. 2020. №4. – Б. 161-164.

[44] Шалекенов У. Медицинское обслуживание на юге Казахстана во второй половине XIX- начале XX века // Вестник КазНПУ. 2020. №4. – С. 24-46. https://articlekz.com/article/11343; Джунисбаев А. Из истории становления системы здравоохранения в советском Туркестане (1917-1919 гг.). // e-history.kz/ru/history-of-kazakhstan; Динашева Л., и др. Лечебные учреждения города Туркестана и оказание медицинских услуг в конце XIX – в начале XX века // Отан тарихы. 2022. №1. – С. 69-77.

[45] Ларина Е. “Надо Жир Тенгри молиться– он травы дает” траволечение у казахов // Сборник научных статей “Этнокультурные процессы в прошлом и настоящем”. – Москва, 2012. – С. 213-220; Жумагалиева К. и др. История традиционной медицины казахского народа // Известия СНЦ РАН. 2020. №2. – С. 117-126.

[46] Дехконов Н. Народная медицина и ветеринария полуоседлого населения Кураминского, Туркестанского Хребтов и Шуркуля // Наука и новые технологии. 2009. №7. – С. 158-162; Ахмедов А. и др. Особенности развития здравоохранения Таджикистана в период присоединения Средней Азии к царской России // Вестник АМН Таджикистана. 2016. №2. – С. 61-73; Ахмедов А. и др. Обобщение опыта здравоохранения в различных административных регионах Бухарского эмирата и его влияние на состояние здоровья населения того периода // Вестник АМН Таджикистана. 2017. №2. – С. 87-93.

[47] Джунушалиева Г. Культурная политика государства в Кыргызстане: этапы и пути реализации: вторая половина XIX в. - конец 30-х гг. XX в.: дисс. для кан. ист. наук. – Бишкек, 2005. – 168 стр; Саадабаева Г. История становления здравоохранения на территории Кыргызстана // Медицина Кыргызистана. 2013. №2. – С. 97-100; Касымов О. и др. Исторические аспекты медико-санитарного обслуживания Туркестанский походов // Медицина Кыргизистана. 2012. №8. – С. 62-66.

Rossiyada yaratilgan tadqiqotlarning birinchi qismida tibbiy tizimni guberniyalarda joriy etilishiga e'tibor qaratilgan[48]. Ushbu tadqiqotlar imperiyaning boshqa hududlari bilan Turkistondagi tizim o'rtasidagi tafovutni taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotlarning ikkinchi qismi masalaga mo'tadil qaraydi. V. Ogudin attorlarni sog'liqni saqlashda tutgan o'rni hamda dorivor xom-ashyolar savdosi masalasi, milliy tibga xos urf-odatlarni etnologik asosda tahlil qilgan[49].

Olima Sofi Homan[50] qarashlarida Rossiya imperiyasining tibbiyotdan o'lkani boshqarishda va ijtimoiy masalalarni tartibga solishda qurol sifatida foydalanganligi urg'ulanadi. Kassandra Mari[51] Turkistonda tibbiyotning hukmron qatlam uchun yo'naltirilgani va imperiyani mustamlaka siyosatini ushbu soha orqali tahlil qilgan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Turkistonda tibbiyot tarixi va an'analariga doir tadqiqotlarning aksariyati shifokorlarning tizimda tutgan o'rni hamda o'lkaga xos yuqumli kassalliklarga bag'ishlangan. Turkistonliklar foydalangan milliy tibning qiymatiga baho berishda esa tabiblar faoliyati orqali munosabat bildirilgan va bu fikrlar ko'p hollarda salbiy ko'rinishda aks etgan.

Dissertatsiyaning **"Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Turkistonda tibbiy an'analar"** deb nomlangan ikkinchi bobida o'lkada milliy tib an'analari, sohaning mintaqaviy xususiyatlari hamda tabiblarning faoliyati aks etgan.

Ikkinchi bobning ***"Turkiston o'lkasida aholi salomatligini saqlash tizimi"*** deb nomlangan birinchi paragrafida sog'liqni saqlash muassasalari hamda mintaqaviy davolash xususiyatlari tahlil qilingan. Turkistondagi davolash muassasalarini birinchisi davlat shifoxonalar edi. Shunday muassasalardan biri Buxoroning Registon maydonidagi "Dorush-shifo" kasalxonasi edi[52]. XIX asrda aksariyat kasalxonalar madrasalar qoshida bo'lib, mudarrislar talabalarni nazariy o'qitish bilan birga, kasalxonadagi bemorlarni davolash orqali amaliy mashg'ulotlarni ham tashkil qilgan. Talabalar va bemorlar vaqf daromadi hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlangan[53]. Xiva xonligida ham shifoxonalar umumiy va alohida oliynasab oilalar, harbiylarga mo'ljallangan bo'lib, Ollohqulixon davrida yarador navkar Xivadagi "Dorush-shifo"da davolanishga yuborilgan va sog'ayib ketishi uchun yuz tilla ajratilgan[54]. Qo'qon, Toshkentda ham davlat amaldorlari hamda aholi foydalanadigan shifoxonalar faoliyat yuritgan. Jumladan, shaharning Kaykovus arig'i sohilida sarkardalarni davolaydigan shifoxona bo'lgan[55] va bu yerda bemorlar uchun xonalar, dorixona, hammom, oshxona va boshqa xonalar tashkil qilingan.

---

[48] Ташбекова И. Государственная политика Российской империи в социальной сфере: вторая половина XIX – начало XX: автореф для дисс. д.ю.н. – Москва, 2012. – 52 стр; Суворов В. Медицинская помощь как фактор культурного и политического влияния в оценках отечественной публицистики рубежа XIX – начала XX века // Бюллетень медицинских Интернет-конференций. 2017. №3. – С. 646-647.

[49] Огудин В. Народная медицина Средней Азии и Казахстана. – Москва: Ганга, 2021. – 538 стр; O'sha muallif. Атторы – аптекары народной медицины мусулманского востока // ЭО. 2001. №2. – С. 112-130.

[50] Hohman S. pouvoir et sante en Ouzbekistan. – Paris: Petra, 2014. – 321 pp.; O'sha muallif. La médecine moderne au Turkestan russe: un outil au service de la politique coloniale // Cahiers d'Asie centrale. 2009. №17/18. – P. 351.

[51] Cassandra Marie Cavanaugh. Backwardness and biology: medicine and power in Russian and Soviet Central Asia. 1868-1934: Dissertation for Phd degree. – New York: Columbia University, 2001. – 412-p.

[52] Ўролов А. Ўтмишдаги даволаш ва шифобахш муассасалар. – Тошкент: Фан, 1990 – 13-бет.

[53] Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2007. – 108, 243-бетлар.

[54] Муҳаммадризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А. Ўрозбоев. – Тошкент: Quvonchbek mashhur, 2020. – 226-бет.

[55] Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Асрлар ошган табобат. –Тошкент: Davr press, 2007. – 35-бет.

Hammomlar. Turkistonda hammomlar aholi salomatligini asrash va kasallikdan saqlanishda muhim ahamiyat kasb etgan. Hammomlarda erkaklar va ayollar uchun alohida ishchilar bo‘lgan. Jumladan, *xodim*– uqalovchi, *xaltador*- tanani kirdan tozalovchi, *bibixalfa*- xotin-qizlarning kasallarini davolovchilar. Shuningdek, ayrim maxsus hammomlarda giyohdan choy tayyorlovchilar, surtma dori, damlama sotuvchi dorigarlar hamda sartaroshlar xizmati yo‘lga qo‘yilgan[56]. Uqalovchi mijozning yoshi, kasallik turini hisobga olib, muolajada qatiq, asal hamda parranda, ot, tuya yog‘idan foydalangan. Xaltador va boshqa yordamchilar badanni tozalash ishlari bilan shug‘ullangan. Hammomlar ko‘proq erkaklar boradigan maskan hisoblangan. Faqat Anushaxon hammomiga qullar kiritilmagan[57]. Buning sababini hammomning nufuz va obro‘ga egaligi, qullarning jamiyatdagi mavqei bilan izohlash mumkin. Ayollar masalasida aytish joizki, farzand ko‘rgan xotin chillasi chiqishi bilan qaynonasi va qarindoshlari bilan hammomga kelgan. U giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlar bilan muolaja qilingan va obdon cho‘miltirilib, “chilla”dan chiqarilgan[58].

Tabiblarning bemorgohlari. Tabiblar aholini ehtiyojlaridan va imkoniyatdan kelib chiqib o‘z uylarida hamda aholi gavjum guzar, bozorlarda faoliyat olib borgan. Aksariyat tabiblar bozorlarda joylashgan o‘z “do‘kon”larida bemorlarni muolaja qilgan. Masalan, Buxoroda davolovchilarni bozorlarda maxsus qatori bo‘lgan[59] va bu “do‘kon”lar gavjum nuqtalarida joylashgan. Toshkentda Moshtabib bemorlarni “tabib ko‘cha”dagi, Ahmadxo‘ja hakim esa Hasanboy mavzesidagi dala hovlisida davolashi[60] bilan nom chiqargan. Xiva xonligidagi bu “moslashtirilgan dorixonalar” deb atalgan va xalq orasida esa “charchi saroyi” deb nomlanib, ular yopiq bozor – timlarda joylashgan[61].

Mintaqaga xos umumiy davolash usullari aholini taomlanishi, parhez saqlashi, umumiy davo usullarida namoyon bo‘ladi. a) Parhez. Turkistonda keng tarqalgan usul bo‘lib, tabiblar kasalning tabiatiga qarab parhez buyurgan. Aholi ham parhez davolashning boshlang‘ich nuqtasi deb qarashgan. Shifokorlar davolashda parhez buyurmaganda turkistonliklar ularni nodonlikda ayblashgan. Shifokor G. Kolosov “murojat qilgan umumiy 1500 ta bemordan atigi o‘ntachasi parhez haqida so‘ramadi. Qolgani muolajalar buyurilgandan so‘ng, nima yeyish yoki nima ichish mumkinligi haqida so‘rashdi”, degan[62]. b) Qon olish. Bahor va kuzda qon oldirish musulmonda sunnat hisoblangan[63]. Tabiblardan tashqari sartaroshlar ham zuluk bilan qon olgan va zulukni zaharsiz, xavfsizligiga e’tibor qaratishgan. Hududlarda zuluk qo‘yuvchi tabiblar uyushib mahalla, ko‘chada yashagan[64]. Yana, xalq orasida qon oluvchi-nashtarchi tabiblar faoliyat yuritgan. Qortiq bilan qon olishda qortiqchi qoramol

[56] Крестяковский В. В гостях у эмира Бухарского. – СПб., 1887. – 127.
[57] Ғойибов М. ва бошқ. Хива табобати. –Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1995. – 21 бет
[58] Халқ табобатида табиий гиёҳлардан фойдаланиш усуллари / Ўзбекистон худудида табиий фанлар йуналишидаги илмий тадқиқот ва экспедициялар (XIX аср -XX аср бошлари). Масъул муҳаррир Д. Зияева. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 290 бет.
[59] Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. – Copenhagen: William Heinemann, 1911. – 449-p.
[60] Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyi joriy arxivi. KK.7025-raqamli hujjat.
[61] Умид Бекмуҳаммад. Хива хонлиги даврида дорихоналар, косметология ва ҳаким-сартарошлар // Маърифат саодати. 2018 йил, 2 феврал.
[62] Колосов Г. О народном врачевании у сартов и киргизов Туркестана. – СПб., 1903. – 62-стр.
[63] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тиб ва дам. 18 жуз. – Тошкент: Hilol nashr, 2016. – 112-бет.
[64] Сухарева О. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976. – 171-стр.

shoxidan tayyorlangan anjom yordamida qonni so‘rib olgan. Ba’zan, tabiblar zuluk qo‘yilgandan so‘ng, o‘sha joyga qortiq qo‘yib, zulukning tishidan qolgan zaharni chiqargan. d) Uqalash usuli hammom xodimlari va siniqchi tabiblar tomonidan qo‘llanilgan. Siniqchilar singan joy terisini asliga keltirish hamda tanadagi ezilish, siqilish kabilarni davolashda ishlatishgan. e) Kimod usuli. Bunda tariq, tuz, kepak, qum kabi quruq narsalar xaltaga solinib, tosh, g‘isht va kesaklar shundayligicha qizdirilib badanga bosilgan[65]. Yana issiq qum yoki tibbiy tandirda cho‘g‘ hili tanaga singdirilgan. Obzan[66] giyohli suv to‘ldirilgan idishga kasal a’zoni solishdir. Obzan shifobaxsh suv, loy, qum bilan amalga oshirilgan[67].

Davolashning mintaqaviy jihatlarini yuzaga kelishiga quyidagilar ta’sir etgan. *Tabiiy muhit omili*. Insonlar kasallikning yuzaga kelishining tabiat bilan bog‘liq ekanligiga ishongan. Tabiiy muhitning xususiyati o‘sha yerga xos o‘simlik va hayvonot turlarida aks etadi. Ayrim hududlarda ba’zi dorilar ta’sir qilsa, boshqa yerda bu darajada kuchini ko‘rsatmagan. Chunki, aholi o‘zini o‘rab turgan tabiatning foydali va zararli jihatlariga ko‘nikkan, dorivorlarning salbiy ta’siriga qarshi tanasida himoya omili shakllangan. Tog‘ va tog‘oldi aholisi davolashda buloq, tuzli g‘or, ko‘l va ma’danlarning xususiyatlaridan, tekislik aholisi issiq qum, tuproqdan foydalangan[68].

Tabiblar faoliyatiga oid omil. Qo‘qon xonligida tabiblar nam iqlim tufayli kelib chiqadigan nafas yo‘li hastaliklarni davolashda mohir bo‘lishgan. Xiva tabiblari yaralarni giyohlar bilan davolashga, boshdan qon olishga katta ahamiyat berishgan[69]. Bundan tashqari, musiqa yordamida asab xastaliklarini davolagan. Buxoro tabiblari rishtani davolash uchun Devonbegi Labihovuzi atrofida qo‘nim topgan[70]. Bundan ko‘rinadiki, tabiblar ham hududga xos kasallik va giyohlarning xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflangan.

Jamoaviy qoidalar omili. Jamoat qoidalariga ko‘ra qabriston “nopok” hisoblanib, uni o‘rni 40 yildan so‘ng buzilgan va dastlab poliz ekinlari ekilgan. Birinchi hosili yig‘ishtirib olinmagan[71] va keyingi yildan dehqonchilik qilish, bino qurish mumkin bo‘lgan. Qassoblar sog‘lom, tetik mollarni so‘yishi, qonni chiqarib tashlashi, harom qilingan qismlarni ajratish[72] belgilangan. Hukumat bozor, karvonsaroy kabi binolarda havo aylanishini, mahsulotlarni rastalarga ajratishi, karvonsaroylar va musofirxonalarda tabib uylarini, yuvinishga sharoit yaratib, kasalliklarni oldini olish choralarini ko‘rgan.

Ikkinchi bobning ***“Tabiblar faoliyatiga doir an’analar”*** nomli 2-paragrafda tabiblik kasbini egallash usullari va ularning tasnifi keltirilgan. XIX asrda Turkiston o‘lkasining barcha hududlarida tabiblik nasldan-naslga o‘tgan. Turkiston o‘lkasida tabiblik nega sulolaviy xususiyat kasb etdi? Tabiblikni madrasalarda o‘rganish iqtisodiy ta’minotni hamda vaqtni talab qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aksariyat

[65] Боситхон ибн Зоҳидхон Шоший. Қонуни Боситий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 648-654-бетлар.
[66] Ўролов А. Ванна муолажаси Европадан олинганми? // Moziydan sado. 2022. №2. – Б. 39.
[67] Muallif qaydlari. Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahri Damariq mahallasi. 2016 yil.
[68] Сакирич П. Заметка о Хазрет-Аюбских минеральных источниках // ТВ. – 1882 год. №30.
[69] Путишествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах... – 138-стр.
[70] Садриддин Айний. Эсдаликлар. 7-жилд. – Тошкент: Тошкент, 1966. – 232-бет.
[71] Хўжахонов И. Фарғона водийси қишлоқ аҳолиси анъанавий турар жойларининг этноҳудудий хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари): т.ф.н учун дисс. – Тошкент, 2007. – 129-бет.
[72] Патхиддинов Р. XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистонда соғлиқни сақлаш тизими... – Б. 163.

tajribali tabiblarning o‘z davo usuli va dorisi bo‘lgan. Tabiblikni oilada egallagan farzand-shogirdiga ustoz-ota guvohlar oldida fotiha bergan[73]. Bu jarayon marosim shaklida bo‘lib, unda ustoz ramziy ma’noda pand-nasihat qilgan. Shogird ustozdan nasihatlarni qabul qilganini qasamyod qilib tasdiqlagan. Marosimni amaliy tomonini ko‘radigan bo‘lsak, an’anaga ko‘ra tabiblikni kasb qilishni istagan kishi guvohlar ishtirokida uchta kasalni muvaffaqiyatli davolab, o‘z mahoratini ko‘rsatishi zarur edi[74]. Shundan so‘ng, talabgor tabiblik maqomiga ega bo‘lib, davolash bilan shug‘ullangan. Tabiblikni o‘rganishning ikkinchi turi madrasada o‘qish edi. Madrasada tashxis qo‘yish, giyohlardan dori tayyorlash usuli o‘rgatilgan. Turkistonda madrasa bitiruvchilarining barchasi tibdan xabardor edi va xalq orasida Buxoroda o‘qiganlar ko‘proq bilimli degan qarash bo‘lib, ularning obro‘si, xizmat haqqi baland edi[75].

Tabiblarning davolash usullaridan kelib chiqib, uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi – sehr jodu, afsun bilan davolovchilar, ikkinchisi – diniy oyatlarni o‘qib davolovchilar va uchinchisi – tajribaga tayanib, amaliy davolovchilar. Birinchi guruh xalq orasida: baxshi, folbin, azayimxon, sadqoqchi, duoxon, parixon nomlari bilan ataladi. Ikkinchi guruh tumor berish, bemorga dam solish, qog‘oz parchasiga yozib berish bilan shug‘ullangan. Uchinchi guruh tabiblari quyidagicha tasniflanadi:

Siniqchi. Ular *shikastaband, soluvchi[76], usta* nomlari bilan yuritilgan. Siniqchi suyakning sinishi, darz ketishi, chiqishi va etning lat yeyishi kabilarni davolagan. Ular jarohatga qarab tuxum sarig‘i yoki gilmoya surib, gips ko‘rinishidagi o‘ram bilan bog‘lagan. Bundan tashqari, terak, tolning novdasini singan joyga ketma-ket quvursimon qilib terib, qimirlamaydigan qilib qotirilgan. Siniqchilardan tashqari, *siloqchi* nomli uqalovchi ham bo‘lgan va pay cho‘zilishi, et ezilishida uqalash muolajasini qo‘llagan.

Jarrohlar. Jarrohlik ishi *amal, dastkori* deb ham atalgan. Turkiston o‘lkasida faoliyat yuritgan jarrohlar tish, qon olish, xatna qilish, rishtani olish bilan shug‘ullangan. Yengil jarrohlik amaliyoti bilan sartaroshlar ham shug‘ullangan. Sartaroshlar xalq tomonidan e’zozlanib, *usta* deb atalgan. Temirchilar ham ustaxonasida tish olgan. Agar temirchining o‘zi bu ish bilan shug‘ullanmasa, ukasi yoki yaqini bu amaliyotni bajargan. Bundan tashqari, homiladorlar, qattiq qo‘rqqan o‘spirin, o‘smirlar ustaxonadagi suvdan dori o‘rnida ichgan[77].

Dorigarlar, attorlar. Bu davrda dorilar bemorlarga ikki usulda tarqatilgan: birinchisi, turg‘un holda, ikkinchisi, ko‘chma shaklda. Ko‘chma dori tarqatish attorlarga xos bolib, xo‘jalik buyumlarini sotish bilan birga aholini dorivor giyohlar bilan ta’minlashgan. Ayrim tabiblarni alohida dori sotadigan attor tanishlari bo‘lgan va u mijozga yaqin attordan kerakli dorivorlarni olib kelishni buyurgan[78]. Dorigar, attor va tabib yaqin munosabatda bo‘lgan. Sababi, tabib uzoqdagi mijozlar bilan attorlar orqali aloqa qilgan va tabibning dorisiga egalik qilish attorga ham reklama vazifasini

[73] Muallif qaydlari. Toshkent shahri, Yunusobod tumani 9-mavze. 2016 yil.
[74]Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. – 33-бет.
[75] Meakin A. In Russian Turkestan a garden of Asia and its people. – London: George Allen, 1903. – 167-p.
[76] Muallif qaydlari. Buxoro viloyati Qorako‘l tumani Sayyod qishlog‘i. 2017 yil.
[77] Muallif qaydlari. Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Yuzrabot mahallasi, 2023-yil.
[78] Ремпел Л. Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент, 1892. – 54-стр.

o‘tagan. Shuningdek, ayrim dorilarni ishlatish uchun tabib tavsiyasi zarur edi. Tabib ham attorlarning chetdan keltirilgan dorilariga ehtiyoj sezgan.

Ko‘z tabiblari. Ular *kahhol* deb ham atalgan. 16-yuzyillikka oid qozilik hujjatlarida Samarqanddagi ko‘z tabiblarining muolajasi haqida ma’lumot berilgan[79] bo‘lsa, 19-yuzyillikda Farg‘onada ishlagan shifokor vodiyda kataraktani muvaffaqiyatli davolagan hakim va uning tibbiy anjomlari haqida to‘xtalib o‘tgan[80]. Toshkentda yashagan Afg‘on tabib 13 yoshli qizning ko‘zini giyohlar bilan 30 kunda davolagan[81]. Shuningdek, Chodakda yashagan tabiba ayol ko‘ziga oq tushgan kishilarni nayqamish orqali, jarrohlik yo‘li bilan tuzatgan[82]. Aholi ko‘z shamollashi kabi kasalliklarni davolashda ko‘k choy bilan yuvish va qovoqlarga bo‘yoqlar surish usulini qo‘llagan. Bundan tashqari iliq sut, surma, choy shamasi va tomchi doridan foydalanilgan[83].

Doyalar, ayollar tabibasi. Turkistonda ayollar kasalligini davolovchi va ularga farzand ko‘rishda ko‘maklashuvchi tabibalar, doyalar faoliyat yuritgan. Ayollar doyalarga befarzandlikdan, tug‘ilajak bolasini jinsini bilish, o‘g‘il ko‘rish uchun murojat qilgan. Doyalar jinsni bilishdan ko‘ra ayollarda uchraydigan kasalliklarni davolashga urg‘u qaratgan. Doyalar befarzand ayollarni uqalash, termik usullar bilan davolagan[84]. Befarzand ayollar o‘choqqa solingan[85] yoki issiq hammomga, tandirga tushgan, issiq g‘isht, guvala bilan[86] muolaja qilingan.

“Rossiya imperiyasining Turkistondagi tibbiyot siyosati” nomli uchinchi bobda tibbiy siyosat huquqiy, moliyaviy va muassasalar faoliyati misolida ochib berilgan. ***“Turkiston general-gubernatorligi tibbiyot siyosatining maqsadi, huquqiy asosi va tuzilmasi”*** nomli 1-paragrafda Rossiya imperiyasi o‘ziga tegishli bo‘lgan barcha mustamlakalarida boshqaruvning hamma tarmog‘ini harbiy qoidalar asosida tasarruf etishi yoritilgan. Turkiston o‘lkasida tibbiy siyosatning huquqiy asosi imperiya miqyosidagi tibbiyotga oid qonunlarga hamda “O‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga tayangan. Keyingi davrda unga ayrim qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lsada, tibbiyotning tuzilma va vazifalari o‘zgarishsiz qoldi. Tibbiyotni boshqarish masalasi 1865-yilgi muvaqqat Nizomda[87] va 1886-yilgi shaklida[88] yoki Nizomga boshqa qo‘shimchalar kiritilganda ham alohida tartiblanib, markaziy va hududiy tuzilmalarning tarkibi qat’iy belgilandi. Hududlarda tibbiy soha viloyat harbiy gubernatori nazoratida bo‘lib, quyi boshqaruv tuman harbiy-tibbiy nozirida edi. Tuman harbiy-tibbiy noziri bir vaqtning o‘zida Turkiston general-gubernatori va harbiy bo‘lim bosh tibbiyot noziriga bo‘ysungan. Tumanlar va viloyatning yirik shaharlarida nazorat okrug shifokorlari va o‘rta tibbiyot xodimlariga yuklatildi[89].

---

[79]Усмонов Ш. Илк шифо масканлари // Фан ва турмуш. 1998. №6. – Б. 28.

[80] Кушелевский В. Материалы медицинской географии и санитарного описания... – 262–264-стр.

[81]Икром Мавлон. Олдингдан оққан сув // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1984 йил, 13 июль.

[82]Баҳромзода Ў. Чодак (қишлоқ тарихидан лавҳалар). – Наманган: Наманган, 2000. – 53-бет.

[83] Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. – Copenhagen: William Heinemann, 1911. – 445-pg.

[84] Саадабаева Г. История становления здравоохранения на территории Кыргызстана... – С. 97.

[85] Muallif qaydlari. Jizzax viloyati, Forish tumani Garasha qishlog‘i. 2023-yil.

[86] Muallif qaydlari. Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahri Haydarchaman mahallasi. 2018-yil.

[87] Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. – Спб. 1863-1917, 1-отдель, 7-дело, 1865 г.

[88] Высочайше утвержденное Положение об управлении Туркестанского края. 12 июня 1886 года... № 3814.

[89] Обзор Ферганской области за 1891 год... – 57-стр; Справочная книжка Самарк. обл. на 1901 год... – 70-стр.



1-rasm. Turkiston o‘lkasida tibbiy boshqaruv va nazorat.

Ushbu bobning ***“Tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash”*** deb nomlangan ikkinchi paragrafida masala uch yo‘nalishda tahlil qilindi:

Hukumatning ayol mutaxassislarga nisbatan munosabati. Hukumat ayol shifokorlarga turkistonliklarni mustamlakachi hukumatga nisbatan dunyoqarashini o‘zgartirishni yuklagan edi. Shu tufayli Turkistonga ixtiyoriy kelish istagini bildirgan shifokor ayollarga yo‘l kira, o‘lkada kamida uch yil xizmat qilish majburiyatini yuklagan holda mablag‘ berilgan[90]. Ammo Turkistonda ayol doktorlar imperiyani boshqa guberniyalaridan farqli o‘laroq davlat xizmatchisi sifatida tan olinmadi hamda nafaqa kabi imtiyozlar qo‘llanilmadi[91]. Bor imtiyoz o‘lkaga kelish va ketishda beriladigan mablag‘ hamda maoshdan iborat edi. Shu sababli, ayol shifokorlar milliy xotin-qizlardan kadrlarni tayyorlashni so‘rab hukumatga murojaat qilishgan. Bu iltimosning yana bir sababi ayollarga ham erkaklar kabi katta hudud va qo‘shimcha vazifalar yuklanganida edi.

Hukumatning erkak mutaxassislarga nisbatan munosabati. Imperiyaning markaziy qismlaridan o‘lkaga keladigan shifokorlarga (harbiy shifokor) kamida uch yillik ish taklif qilingan va bu markaziy hududlardagi to‘rt yillik mehnat tajribasiga tenglashtirilgan[92]. Besh va undan ko‘p yil xizmat qilganlarning lavozimi, maoshi oshirilib, farzandlarini o‘qitishda imtiyozlar berilgan. Bu imtiyozlar shuni ko‘rsatadiki, kadrlarni o‘lkaga jalb qilishning boshqa imkoniyati bo‘lmagan. Boshqaruv harbiylar qo‘lida bo‘lgani uchun shifokorlarga berilgan imtiyozlar ham harbiylarga xos edi.

Kadrlar taqchilligi. Hukumat joriy qilgan imtiyozlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiston o‘lkasiga bitta shifokorni olib kelish ma’lum xarajatni talab qilgan. 1867-yildan har bir hududda bosh shifokor, davolovchi shifokor va 2 ta feldsher o‘rni bo‘lsada, bu joylar 1878-yilgacha bo‘sh turgan[93]. Natijada, ayrim rahbar

[90] Махмудов М. История медицини и здровоохранения Туркестана, Бухары и Хорезма... – 205-стр.
[91] Бадалов А. Фарғона областида соғлиқни сақлаш тизими ва ундаги ўзгаришлар: тарихий таҳлил... – Б. 22.
[92] O‘z MA. I-3-jamg‘arma. 2-ro‘yxat, 407-yig‘majild, 10-varaq.
[93] Hohman S. La medecine moderne au Turkestan russe: unoutil au service de la politique colonial... – P. 322.

shifokorlar kadrlar taqchilligi sababidan tabib, sartaroshlarni shifoxonaga jalb qilgan[94]. Kadrlar soniga nazar solinsa, 1907-yilda Turkiston o‘lkasida umumiy 247 ta shifokor ishlagan[95]. Bu davrda umumimperiya bo‘yicha 25927 ta shifokor bor edi[96]. Turkistondagi shifokorlarni katta qismi shaharda faoliyat yuritgani uchun, markazdan uzoq hududlarda kadrlar taqchilligi kuzatilgan. 1914-yilda boshlangan I jahon urushi Turkistondagi tibbiy holatni yanada keskinlashtirdi va xodimlarni safarbar qilinishi katta bo‘shliqlarni yuzaga keltirdi va 1916-yili bu yerda ellikdan ortiq[97] shifokori va kam sonli feldsherlar qoldi.

Milliy mutaxassis tayyorlash masalasi. Turkistonda mutaxassis tayyorlaydigan muassasa tashkil qilinmagan. Ish hajmining ko‘pligi, qo‘shimcha vazifalarning yuklatilishi hisobiga qiynalgan shifokorlar milliy kadrlarni tayyorlash borasida hukumatga murojaatlar qilishsada natija bermadi. Masalan, 1873-yili tibbiy kurs ochish taklifi[98] general-gubernatorlik tomonidan rad etilgan. 1896-yilgi doyalar maktabi loyihasining foyda keltirishiga Kengash ishonmadi. 1907-yilgi feldsherlik maktabi g‘oyasini ham “Toshkentda bino yo‘qligi va yangisini qurish xarajat talab qiladi” - deb rad etildi[99]. Turkistonda faqatgina dorixonalar qoshida mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan va 1916-yilda Toshkentda 10 kishi o‘qigan. O‘qish haftada 2 marta va 7 oygacha davom etgan. Ta’lim bitta tinglovchi uchun har oyda 20 va yetti oyga 140 rublni tashkil qilgani[100].

Uchinchi bobning navbatdagi paragrafi ***“Tibbiyot sohasini moliyalashtirish”*** deb nomlangan. Turkistonda tibbiyot 2 ko‘rinishda ta’minlangan: harbiy muassasalar Harbiy vazirlik byudjetidan; jamoat muassasalari esa davlat byudjeti va xayriya mablag‘laridan moliyalashtirilgan. Ajratilgan mablag‘lar quyidagicha sarflangan: muassasalar ta’minoti, dori-darmonlar, shifokorlarni jalb qilish va maosh uchun.

Hukumat qaroriga ko‘ra jamoat shifoxonalarining ta’minoti shifoxona joylashgan shahar/tuman mablag‘lari hisobidan bo‘lgan[101]. Ammo byudjetning kamligi, boshqa tuzilmalarning ham bu mablag‘larga qaramligi sabab, tibbiyotga oz ulush tekkan. Hududiy mablag‘larning 0.6% tibbiyot uchun ajratilgan[102]. Hukumatning xarajatlarni qoplash masalasidagi adolatsizligidan soha vakillari ham norozilik bildira boshlashdi. Jumladan, shifokor Nazarov, hokimiyat milliy aholidan yiliga 200 000 rublgacha pul yig‘ib olsada, aholini tibbiy ehtiyojlari uchun sarflashni xohlamaydi, eng zarur ehtiyojlarni qondirishga ham 15-20 ming rubl miqdorida pul berishni istamaydi[103], deb qayd etgan. General-gubernatorlik tuman kasalxonasiga umumiy ehtiyoj uchun yiliga 1,6 ming rubl ajratgan. Shundan, dori-darmon, bog‘lov ashyolarini olishga 300 rubl; bemorning kunlik xarajatiga 30 tiyin; idora ishi va kutubxonaga 70

[94] Махмудов М. История медицина и здравоохранения Туркестана, Бухары и Хорезма... – 228 стр.
[95] Центральная Азия в составе Российской империи. С. Абашин и др. – Москва: Нов.лит, 2008. – 156-15 стр.
[96] Doxiliy xabarlar (Tabiblarning adadi) // Samarqand gazetasi. 1913 yil, 30 avgust.
[97] Туркестанские ведомости. 1916 год, №30.
[98] O‘z MA. I-717-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 35-yig‘majild, 163-varaq.
[99] O‘z MA. I-717-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 35-yig‘majild, 164-varaq.
[100] Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2004. – 133-бет.
[101] ПСЗРИ-3. Т. 15. – СПб. 1899. №11767. – 370-стр.
[102] Пален К. Отчет ревизии Туркестанского края. Земское хозяйство. – Санкт-Петербург, 1910. – 68 стр.
[103] Назаров. Туземная часть, город Ташкента. Отношенне ее населения к русской медицине... №17.

rubl; uy ijarasiga 300 rubl, xizmatchi yollashga 240 rubl[104] ajratilgan. 19-yuzyillikning 80-yillarida ayollar-bolalar kasalxonalaridagi bepul xizmat xarajatlarini go‘yoki davlat o‘z gardaniga olganligini bildirsada, aslida bu mablag‘lar aholining to‘lovlaridan olingan. Bu xarajatlarni qoplash qimmatga tushgan. Natijada, 1906-yili tibbiyot pullik bo‘ldi va tekin xizmat faqat kambag‘allarga berildi[105]. 19-yuzyillikning 80-yillariga qadar tizimni moliyalashtirish harbiy soha mablag‘laridan ta’minlangan bo‘lsa, keyin mintaqaviy to‘lovlari, davlat byudjeti va xayriya mablag‘laridan bo‘ldi. Mablag‘larning ehtiyojdan kelib chiqib sarflanmasligi shahar va qishloqlarda tibbiy xizmatni tabaqalashtirdi. I jahon urushida imperiyaning ishtiroki esa vaziyatni yanada og‘irlashtirib, Turkiston general-gubernatorligida tibbiyotni moliyaviy yo‘qotishlar bilan ham yashashiga olib keldi.

Mazkur bobning 4-paragrafi ***“Tibbiy xizmat muassasalari”*** deb nomlanib, shifoxonalarning holati, xizmat qamrovi hamda dorixonalarni tashkil qilish jarayonlari o‘rganilgan. Turkistonda ilk mustamlaka shifoxonalari harbiy ko‘chma va turg‘un kasalxonalar edi. Ko‘chma shifoxona 1868-yili ochilgan va 1870-yili turg‘un kasalxonaga aylantiriladi. 1883-yildan jamoat shifoxonalari hududlar bo‘ylab: Toshkent, 1886-yil[106] Samarqand va Xo‘jand, 1887-yil[107] Farg‘onada ochilgan. O‘lkadagi tibbiy muassasalar general-gubernatorning tasdig‘i asosida ochilgan va nazorat viloyat harbiy gubernatoriga topshirilgan. Bunday tartib tufayli yangi muassasalarni ishga tushirish qiyin kechgan. Masalan, 1886-yili Toshkentda kasalxona ochish uchun general-gubernatordan ruxsat so‘ralgan bo‘lsada, bu masala orqaga surilib, 1891-yilda[108] ruxsat beriladi. Hukumat shifoxonalarning ehtiyojini qondirolmasligini hisobga olib, xususiy muassasalarga ruxsat berdi. Bunday kasalxona 1908-yili Toshkentda ochilgan va 1911-yili 48 ta shifokorning 30 tasi xususiy muassasada ishlagan[109]. Milliy aholi esa o‘z mablag‘lari hisobidan shifoxonalar qurishga intilgan. Afsuski, hukumat turkistonliklarni o‘z pullariga qurayotgan muassasalarini ham qo‘llab-quvvatlamadi. Toshkentda kasalxona uchun turkistonlik boy yer xayriya qilgan va qurilishga 38000 rubl yig‘ilgan. Biroq bu mablag‘dan shahar boshlig‘ining uyiga jihoz olingan, ajratilgan yerda politsiya mahkamasi qurilgan[110]. Yoki, 1870-yil To‘ytepada aholi kasalxona qurib, jihozlar keltiradi. Ammo hukumat bosh shifokor tayinlamadi va kasalxona uzoq vaqt ishlamaydi[111].

Muassasalardagi *tibbiy xizmat masalasini* ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu borada ham vaziyat shifoxonalarni holatidan ortiq emasdi. 1881-yili Turkiston o‘lkasida aholi 2,300,000 kishi bo‘lib, ulardan 18500 tasi muassasalarga murojaat qilgan. Bu ko‘rsatkich umumiy aholining 1 foizini ham tashkil qilmagan[112]. Chunki, aksariyat muasasalar aturkistonliklar uchun uzoq masofada joylashgan edi. Tibbiy xizmatning nooqilona tashkil qilingani epidemiyalar davrida namoyon bo‘ldi. Epidemiyalar

[104] Ахмедов А и др. Особенности развития здравоохранения Таджикистана... – С. 64.
[105] Свод законов Российской Империи. Том XIII. Врачебный устав. – Санкт-Петербург, 1913. – 234-стр.
[106] O‘z MA. I-1-jamg‘arma. 10-ro‘yxat, 2067-yig‘majild, 4-varaq.
[107] O‘z MA. I-19-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 36654-yig‘majild, 19-varaq.
[108] Шодмонова С. Туркистонда замонавий тиббиётнинг ибтидоси / www.uzanalytics.com/tarix/7171.
[109] O‘z MA. I-17-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 38010-yig‘majild, 30-32 varaq.
[110] Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. – 91-бет.
[111] Рустамова Х. ва бошқ. Тиббиёт тарихи. – Тошкент: O‘zkitobsavdo, 2020. – 165-бет.
[112] Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный Сенатором... – С. 161.

davrida hukumat shaharda ta’sir choralarini ko‘rgan. Shahar atrofi va qishloqlarda kasallik keng tarqalgandagina ambulatoriya ochishga ruxsat berilgan[113]. Statistikaga ko‘ra yuqumli kasalliklarga chalinganlar orasida rus va boshqa yevropaliklar ko‘proq tuzalgan. Hukumat buning sababini ular kasallikning ilk belgisi kuzatilgandayoq murojaat qilishi bilan izohlagan[114]. Bu tabiiy edi, chunki, milliy aholi uchun o‘z vaqtida arava va boshqa ulovda bemorni yangi shaharga olib kelish qiyinchilik tug‘dirgan.

Turkistonda dorixona ochish va dorishunoslik faoliyati “Dorixona ochish tartib-qoidalari to‘g‘risidagi Nizom” asosida tartibga solingan[115]. Unga ko‘ra, yangi dorixona ochishda aholi soni hamda dorixonaga uch yil davomida kelib tushgan yillik doriko‘rsatmalar va qayta murojaatlar inobatga olingan. Poytaxt va markaziy guberniyalarda yangi dorixona ochishga 10 000 kishiga 15 000 ta doriko‘rsatmalar to‘g‘ri kelganda ruxsat berilgan[116]. Kichik shahar, posyolka, qishloqlarda masofadan kelib chiqib ruxsat berilgan. 1873-yili bu qoidalarga o‘zgarishlar kiritiladi[117]. Xususan, doriko‘rsatmalar hisobi, aholi soni va masofaga qo‘yilgan talablar qisqartirildi. Shundan so‘ng, xususiy dorixonalar soni oshdi. Ochilgan dorixonalar ham Turkiston o‘lkasining rossiyaliklar istiqomat qiluvchi qismida edi. “Eski shahar” aholisi uchun ochilgan dorixonalarning joyi ham “yangi shahar” chegarasidan uzoqqa ketmadi. Aksar dorixonalar shifokorlarni ish joyi, yashash manzili atrofida ochildi, boshqalari temiryo‘l bekatlari yaqinida tashkil qilindi[118]. Hududdagi aholi soni va dorixonalarni o‘zaro teng masofada bo‘lishi kabi Nizom talablari inobatga olinmadi.

“Rossiya imperiyasini Turkistondagi tibbiyot siyosatining oqibatlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobda mustamlaka tibbiyotini joriylashdagi muammo va to‘siqlar, hukumatning milliy tibga nisbatan munosabati hamda milliy ziyolilarni tibbiy qarashlar aks etgan. ***“Tibbiyot siyosatini amalga oshirishdagi ijtimoiy holat”*** deb nomlangan birinchi paragrafda holat quyidagi omillarga ko‘ra tahlil qilingan:

a) Hukumatning tibbiy xizmatni tashkil qilishda yuzaga kelgan muammolar: *Mustamlaka tibbiyotini tabaqalashgan tarzda joriy etilgani*. Mustamlaka tibbiyoti harbiylar, hukumat a’zolari va ko‘chib kelganlarga xizmat qildi. Nafaqat siyosiy, balki o‘zining tibbiy xavfsizligi maqsadida hududlarni “yangi” va “eski” qismlarga ajratilishi ham vaziyatni taranglashtirdi. Hukumat tibbiyotdagi bir tomonlama siyosati oqibatida chechakka qarshi emlanishi rus bolalariga majburiy, turkistonlik bolalarga ixtiyoriy bo‘ldi[119]. Natijada, turkistonlik bolalar orasida o‘lim soni yuqoriligicha qoldi. Turkistonda mustamlaka tibbiyotini nazorat qilgan harbiy okrug, Bosh harbiy-tibbiy boshqarmaning majburiyatlari amaldorlari, harbiylarni ehtiyojlariga qaratildi.

Tibbiy xizmat uchun belgilangan narx. 1883-yilgacha harbiy turg‘un kasalxonalarning narxi 15 tiyinni tashkil qilgan bo‘lsa, 1886-yildan ayollar va

---

[113] Афрамович К. Рисовые поля и лихорадки... – 163-стр.
[114] Обзор Ферганской области за 1892 год. – Новый Маргелан, 1894. – 90-стр.
[115] Бадалов А. Фарғона вилоятида дорихоналарнинг ташкил этилиши ва фаолияти тарихидан (XIX аср охири – XX аср бошлари) // Ilmiy xabarnoma. 2022. №1. – Б. 54.
[116] Қличев О. Бухородаги дорихоналар фаолияти ва тарихи хусусида ёзишмалар // O‘zMU xabarlari. 2012. №3. – Б. 25.
[117] Жолобова Г. Проблемы правового обеспечения частного и общественного интересов в сфере коммерческой фармацевтической деятельности в России 1881 – 1912 гг. // Политика и общество. 2013. №10. – С. 1243.
[118] O‘z MA. I-3-jamg‘arma. 2-ro‘yxat, 125 a-yig‘majild, 19 б-varaq.
[119] Патхиддинов Р. Фарғона вилоятида чечак касаллиги // O‘tmishga nazar. 2022. №1. – Б. 93

bolalardan tashqari qolganlarga 20 tiyin, 1905-yildan 20 tiyin etib belgilangan[120]. Biroz vaqt o‘tgach xizmat barcha uchun pullik bo‘ldi. Bu moddiy yetishmovchilik bilan izohlansada aslida tekin xizmat o‘z vazifasini o‘tab bo‘ldi, deb qaraldi. Lekin bu holat tibbiyotga nisbatan hali to‘la ishonch hosil qilib, yoppasiga yangi tizimga o‘tishga ikkilanayotgan o‘lka aholisini og‘ir holatga tushirgan. Belgilangan narxni aholining moddiy imkoniyati ko‘tarmagan.

Tibbiy muassasalarni joylashuvi, faoliyati. Shifoxonalarning ko‘pi vaqtincha tashkil qilishga yaraydigan binoga joylashtirildi va o‘sha yerda qolib ketdi hamda ilk davrda berilgan jihozlari bilan ishlashda davom etgan. Oqibatda hukumat orqaga qadam tashladi: jamoat shifoxonalari 1900-yilda jihoz kamligi, o‘rinlarni yetishmasligi sababli kasalxona talablariga javob bermagach quyi muassasa- ambulatoriyaga aylantirilgan. Farg‘ona viloyatining 1913-yilgi hisobotida qo‘shimcha oltita muassasa qurilishi “qishloq aholisiga yordam ko‘rsatishni sezilarli darajada yaxshiladi”[121] deyilgan. Albatta, bu farg‘onaliklarni yaxshi tibbiy xizmat olishga sabab bo‘lgan. Lekin bu holat 1913-yilda ham muassasalar qurish kamyob hodisaligini ko‘rsatadi.

b) Mustamlakachi - mustamlaka o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy, diniy tafovut: *Til muammosi*. Aholini qiynagan masala til bilmaslik va shifokor bilan muloqot qilolmaslik edi. Turkistonliklar shifokor qabuliga kelganda tomir urishini tekshirish uchun beixtiyor qo‘lni uzatgan va ishoralar bilan tushuntirishga harakat qilgan[122]. Bemor va shifokor o‘zaro so‘zlashmagani sababli berilgan dorilarni noto‘g‘ri qabul qilish, amal qilinadigan qoidalarga bilmasdan bo‘ysunmaslik holatlari yuz bergan.

*Tabiblar faoliyatining saqlanib qolinishi*ga doir jihatlar. Tabiblarni erkin faoliyat yuritishining *birinchi omili,* Rossiya imperiyasi tugatilgunga qadar o‘lka xizmat bilan to‘liq qamrab olinmagan va muassasalar ham kadrlar bilan ta’minlanmagan edi. *Ikkinchisi,* mustamlaka tibbiyoti yuqumli kasalliklar bilan o‘ralashib qoldi. Lekin aholi ko‘p duch keladigan hastaliklarni davolash tabiblarga va turkistonliklarning o‘ziga qoldi. *Uchinchisi,* tabiblar ayrim davolash usullari bo‘yicha shifokorlardan mohir edi. Singan va chiqqan suyaklarni davolash va jarrohliklar borasidagi mahoratini shifokorlar ham alohida qayd etish mumkin. Tabiblar “Afg‘on yarasi”, “pashshaxo‘rda” kabi teri kasalni davolashda mohir bo‘lgan[123].

*Harbiy kiyim va tibbiy jihozlar*ga bo‘lgan munosabat. Shifokorlar ish vaqtida harbiy kiyimda bo‘lgan. Aholi ularning kiyimlaridan, tibbiy anjomlardan cho‘chib munosabatda bo‘lgan. Sababi, Turkistonni bosib olishda harbiy kiyimdagi askarlarning shafqatsizlarcha harakatini ko‘rgan milliy aholi shu kiyimdagi barcha shaxslarga qo‘rquv bilan qaragan. Shifokorlarni egnidagi kiyim aholida, ular ham harbiy degan tasavvurni hosil qilgan. Shifokor aslida harbiy tizimdan chiqqani va sohaga bo‘lgan hurmat yuzasidan ular bu kiyimdan voz kechmagan. Bundan tashqari, yangi tibbiy jihozlar bemorlarda ortiqcha shubhalanishiga sabab bo‘lgan hamda tabiblik qurollari aholini yangi jihozlarchalik cho‘chitmagan[124].

---

[120] Шодмонова С. Медицина и население Туркестана: традиции и новации... – С. 128.
[121] Статистический Обзор Ферганской области за 1913. – Новый Маргелан, 1916. – 124-стр
[122]Tabibga muhtojlik // Sadoi Farg‘ona. 1914 yil, 55-son.
[123] Shuyler E. Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara and Kuldja... – 148-149-p.
[124] Лыкошин Н. Сартараш (туземный брадобрей и цирюльникъ) // ТВ. 1903 год, №75.

Diniy omil. Diniy qoidalarni sog‘liqni saqlash masalasiga ta’siri ayollarda ko‘proq kuzatildi. Turkistonlik ayollar nomahram kishilarga ko‘rinmagan va bu holat xotin-qizlar salomatligini saqlashda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. “Toshkent shahrinining sartiya zaifalari kasal bo‘lganlarida shaharning ruslar yashaydigan tomondagi kasalxonaga bormaganlar. Buning sababi u yerdagi jarrohlarning erkak ekanligidandir”[125] deb ta’kidlanadi. Musulmon ayollarning ro‘mol ostida ham shaharning yangi qismiga borishdan iymanishi[126] sababli, 1885-yil Samarqandda shifoxona eski shaharda ochilgan. Din bilan bog‘liq boshqa masalalar ham bo‘lsada, lekin ayollarni shifokorlardan qochishi darajasida muhim emasdi.

Shifokorlar va turkistonliklarning o‘zaro munosabati. Shifokorlarning ma’naviy qiyofasi bot-bot ko‘tarilgan va aholi bilan shifokorlar o‘rtasida tafovut kattaligi, ular musulmon mijozlariga yaxshi qaramasligi oqibatida, turkistonlik ayollar shifoxonaga borishdan bezib qolgani qayd etilgan[127]. Chunki, shifokorlar ham o‘zlarini hukumatning bir bo‘lagi deb bilishgan va aholidan baland turishlarini his qilgan. Shifokorlarning kamligi, mijozlarning ko‘pligi ham ularda turli “injiqliklarni” yuzaga keltirgan. Shifokorlar o‘lka xalqlari hayotiga kirib borishsada, o‘z hayotiga ularni kirishiga yo‘l qo‘ymagan. Lekin o‘lkada shifokorlarga nisbatan kuch ishlatar holatlar bo‘lmagan. Misol uchun, “Vabo isyoni” kuni shifokor eski shaharga ketayotganda olomon uning aravasini o‘tkazib yuborishga chog‘lanib, yo‘lni ochish uchun ikkiga ajralgan[128], yoki ikkinchi shifokor to‘polonda olomon ichida qolsada zarar ko‘rmaganini aytadi[129]. To‘g‘ri, ayrim hollarda shifokorlarga ishonchsizlik, dori-darmonlarni qoralash[130], jamoat shifoxonalariga nisbatan biryoqlama munosabat kuzatilgan. Lekin bu ayrim turkistonliklarning o‘z yaqinlari orasidagi targ‘iboti edi.

To‘rtinchi bobning ***“Rus hukumatining milliy tibbiy an’analarga munosabati”*** deb nomlangan ikkinchi paragrafida hukumatning tibbiy an’analarga va tabiblik faoliyatiga bo‘lgan munosabati ochib berilgan.

Milliy tibga bo‘lgan munosabat. General-gubernatorlik tibbiyotning mustamlakani boshqarish quroli sifatida foydalanar ekan, shifokorlarga tabiblarning faoliyati, dorishunoslik bilimlari va hududga xos kasalliklarni davolash usullarini kuzatishni topshirgan[131]. Shifokorlar tib yutuqlarini o‘zlashtirsalarda bu tajribalari va an’analari ilmiy tibbiyot sifatida qayd etmadi. Chunki, bu qarash imperiya tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy sivilizatsiyani Turkistonga faqat mustamlaka hukumati olib keldi, degan g‘oyalarga zid edi. Shuningdek, farmasevtlar o‘lkadagi dorivor o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini o‘rganishdi. Bundan maqsad, giyohlarning noyob turlarini yetishtirish orqali iqtisodiy foyda olish edi. Bu ishlarning tashabbuskori xususiy dorixonachi I. Krauze bo‘ldi[132].

---

[125] Shahar shifoxonasi // Turkiston viloyatining gazeti. 1916 yil, 62-son.
[126] Назарьян Р. Женщины-врачи в Туркестанском крае. // Новости Узбекистана. 2018 год, 4 январ.
[127] Qachong‘acha // Mehnatkashlar tovushi. 1921 yil, 239-son.
[128] O‘z MA. I-1-jamg‘arma. 31-ro‘yxat, 30-yig‘majild, 173-varaq.
[129] Sahadeo J. Epidemic and Empire: ethnicity, class, and “civilization” in the 1892 Tashkent Cholera Riot // Slavic Review. 2005. №1. – P. 131.
[130] Muallif qaydlari. Toshkent shahri, Yunusobod tumani 9-mavze. 2016-yil.
[131] Рык Б. Бухарские хирурги // ТВ. 1903 год, №53.; Лыкошин Н. Сартараш // ТВ. 1903 год, №75.
[132] Описание фармакопостических веществ, встречающихся в Средний Азии. Магистр фармации Р. Пальм из Ташкента // Туркестанский сборник. Том 53. 1871. – С. 227.

Ma'muriyatning tabiblar faoliyatiga munosabati. Shifokorlar tabiblarni o‘zlariga raqobatchi va tibbiyotni targ‘ib qilish, joriylashda to‘g‘anoq bo‘lgan shaxslar sifatida bilib, ularga qarshi pinhona kurash olib bordi. Faqat, bu kurash XX asrning boshlarigacha sust holatda kechdi. Chunki, shifokorlar o‘zlarini kamligi hamda tabiblar ta'qiqqa uchrasa aholini tibbiy ehtiyojlarini na o‘zlari, na yangi tizimning moddiy-texnik negizi ko‘tara olmasligini bilishardi. Jumaladan, Marg‘ilonda uyezd shifokorining attor Muhammad Ali Jabborovni dori-darmonlarini olib qo‘yishi munozaraga sabab bo‘ladi va ular tabiblik, attorlikni ta'qiqlashni so‘rab hukumatga murojaat qilishadi. Ammo uyezd rahbari 200 minglik aholiga tabiblarsiz yordam ko‘rsatish imkoni yo‘qligini qayd etadi. Tabiblarning shifokorlar faoliyatiga nisbatan munosabatiga oid ma'lumot kam. Ayrim tabiblarning asarlarida faqat mustamlaka tibbiyoti haqidagi qarashlar qayd etilgan. Hukumat ham tabiblarning munosabati va shifokorlar bilan hamkorligi masalasiga katta e'tibor qaratmagan. Chunki, hukumatga shifokor-tabiblarning o‘zaro munosabati emas, turkistonliklarning tibbiyotga ishonch bildirishi muhim edi.

To‘rtinchi paragraf ***"Turkiston ziyolilarining tibbiyot masalalariga oid qarashlari"*** deb nomlangan. *Ahmad Donish* 19-yuzyillikda an'anaviy davolash usullari o‘rniga tibbiyotni joriy etishning zaruriyati hamda milliy tibni isloh qilish yo‘llari borasida takliflarini bildirgan[133]. A. Donish masalani umumdavlat miqyosida tahlil qilib, sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni milliy tib to‘la ko‘tarolmasligini anglagan. Olim tibbiy islohot davlatga bog‘liqligidan kelib chiqib, mintaqa, mamlakat miqyosida islohotlar loyihasini yaratgan. Uning xulosalari asosida aytish mumkinki, tibbiyotdan xabardor bo‘lgan ziyolilar masalani eng quyi qismi- tibbiyotni milliy tib ustiga qurish kabi jo‘n qarash bilan emas, davlatning imkoniyati, islohotni jamiyat uchun zarurligi kabilardan xulosa qilgan.

O‘lkada ozodalik holati, tabiblar faoliyati va sog‘liqni saqlash borasida g‘oyalarini ilgari surgan olim *Abdurauf Fitrat* edi. A. Fitrat milliy kadrlarni yaratish bilangina masalaga yechim topish mumkinligini qayd etadi. Buning sababini "arzimagan pulga Yevropadan bu yerga tajribali shifokor kelmaydi"[134], deb izohlagan. A. Fitrat milliy kadrlarni tayyorlash uchun Yevropa mamlakatlariga borib o‘qish zarurligi va bu xarajatlarni vaqf mulklaridan qoplashni taklif qilgan. A. Fitrat millatning xulq-atvori va salomatlik madaniyatining mintaqaviy jihatlarini sog‘liqni saqlash tizimini shakllanishiga ta'sir o‘tkazishini qayd etgan.

Sadriddin Ayniyning tibga oid fikrlarini ikkiga ajratish mumkin: u milliy tibda davolash bilan shug‘ullanuvchi boshqa kasb egalarining mahoratini alohida urg‘ulagan va ularning ishini mufassal bayon etgan. Jumladan, Turkiston o‘lkasida keng tarqalgan rishta va boshqa yuqumli kasalliklarni davolashda sartaroshlarning tajribalarini qayd etadi[135]. Ikkinchi tomondan, tabiblar faoliyatiga tanqidiy qaraydi va soxta tabiblarni qoralaydi. A. Donish, A. Fitratning qarashlari milliy tibni umumxalq uchun tizimli isloh qilishga qaratilgan bo‘lsa, S. Ayniy sohaning ijro etuvchi vakillari-tabiblar va shifokorlarning xizmat ko‘rsatishini tahlil qilingan.

---

[133] Аҳмад Дониш. Наводирул вақое.– Тошкент: Фан, 1964. – 415 бет.
[134] Абдурауф Фитрат. Хинд сайёҳи баёноти... – 134-бет.
[135] Садриддин Айний. Эсдаликлар. 7-жилд. – Тошкент: Тошкент, 1966. – 232-234 бетлар.

Turkistonda tibbiyotni joriy etish va milliy tibni isloh qilish masalasida g‘oyaviy jihatdan Abdurauf Fitratga yaqin fikrda bo‘lgan ziyolilardan biri *Hoji Muin* edi. U milliy tibning ojiz nuqtalarini o‘lkada yuz berayotgan epidemiyalar va ularni bartaraf etishdagi kamchiliklar misolida ochib bergan. Shuningdek, zamonaviy sohalar mikrobiologiya, dietologiya qoidalari islom dini bilan bog‘lanib hududiy o‘ziga xoslik kasb etishini ta’kidlaydi. Olim aholini tibbiy qoidalarga amal qilmasligi va islohotlarni yetarli bo‘lmayotganini kamchilik sifatida ko‘rsatgan.

Birinchilardan bo‘lib mustamlaka tibbiy tizimining kamchiliklarini ko‘rsatgan shaxs *Abdulla Qodiriy* edi. U Turkistondagi aholini qiynab kelayotgan kasalliklar va hukumatning bunga munosabatini tahlil qilgan. Abdulla Qodiriy Turkiston general-gubernatorligining aholi salomatligiga munosabati va shifokorlarning faoliyatiga tanqidiy yondashgan.

